

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI
KASBIY RIVOJLANTIRISH VA YANGI
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY-
TADQIQOT INSTITUTI

100095, Toshkent shahar, Ziyo ko'chasi, 6-uy
Tel.: (+998) 71 227-12-52; (+998) 71 246-06-69
web-site: www.avloniy.uz, e-mail: avloniy@xtv.uz



MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

NATIONAL RESEARCH INSTITUTE OF
PROFESSIONAL DEVELOPMENT AND
TEACHING NEW METHODOLOGIES
TO TEACHERS NAMED AFTER
A. AVLONI

6, Ziyosiy street, Tashkent, 100095
Phone: (+998) 71 227-12-52; (+998) 71 246-06-69
web-site: www.avloniy.uz, e-mail: avloniy@xtv.uz

2022-y. «16» *detabr*

№ *01/09-1731*

«» 2022 r.

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligiga

A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutining **2022-yil ish rejasida** belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan **2022-yilda** amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti yuborilmoqda.

Ilova varaqda

Rektor

A.Radjiyev

Ijrochi: B.Umarov
tel.: (71) 246-06-69



**A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar
HISOBOTI**

**I. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGIGA
KIRITILADIGAN MASALALAR**

**1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi
PQ-4963-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosi**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarori bilan **"Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida nizom" tasdiqlandi. Nizom bilan xalq ta'limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi belgilandi.** Nizomga muvofiq, endilikda xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug'ullanadigan nodavlat ta'lim tashkilotlari reestri shakllantiriladi.

Qarorning **1.1.1-bandi** va Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qaroriga asosan vazirlikning 2022-yil 20-apreldagi 121-son buyrug'i bilan **"Xalq ta'limi tizimi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'limining mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat ta'lim talablari"** tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoniga muvofiq, *A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarni belgilash ilmiy-tadqiqot instituti negizida* **A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti** sifatida qayta tashkil etildi.

Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 28-iyundagi 209-son buyrug'i bilan **A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutining Ustavi** tasdiqlandi hamda Toshkent shahar Olmazor tumani, Davlat xizmatlari markazining 2022-yil 28-iyuldagi 5246587-son qarori bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Shuningdek, qarorning **1.1.2-bandida** xalq ta'limi tizimi rahbarlari uchun **“Xalq ta'limi tizimi rahbarlarining kasbiy axloq-odobini, korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini va unga toqatsiz munosabatni shakllantirish bo'yicha”** ishlab chiqilgan o'quv seminar dasturi hamda **reja-grafik loyihasi** tasdiqlash uchun 2022-yil 18-martdagi 01/09-332-son xat bilan Xalq ta'lim vazirligiga yuborildi.

Institutning vakant lavozimlariga ishga qabul qilish Xalq ta'limi vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan kelishib tasdiqlangan **“O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi markaziy apparati, hududiy bo'linmalar, tizimdagi tashkilotlar va muassasalardagi vakant lavozimlarga ishga qabul qilish, xodimlarni boshqa lavozimga o'tkazishda tanlov asosida saralab olish tartibi”**ga asosan amalga oshirilmoqda. Xususan, institutda **jami** shtatlar soni **138 ta**, shundan band shtatlar soni **114 ta**, vakant shtatlar soni **24 tani** tashkil etmoqda.

Qarorining **10-bandiga** asosan Pedagogika markazlarining rahbarlari va rahbar o'rinbosarlari xalq ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda Milliy-tadqiqot instituti rektori tomonidan lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etilish belgilab qo'yilgan. Shu bois, **12 nafar** Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari direktorlari va **7 nafar** direktor o'rinbosarlari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarga o'zgartirishlar kiritildi hamda yangi mehnat shartnomalari tuzildi.

Mazkur, qarorning **2-ilova, 2-bandida** belgilangan vazifani to'laqonli ijro etish maqsadida 2022-yil davomida Pedagogika markazlaridan jami **12 nafar** xodim **Amerika qo'shma shtatlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Fransiya va Qirg'iz** Milliy universitetida malaka oshirish bo'yicha **stajirovkada** bo'ldi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2022-yil 23-maydagi 32-22/2816-son xati bilan yosh olimlarni yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlar (markazlar, universitetlar)ga qisqa muddatli ilmiy stajirovkaga yuborish maqsadida institutning **6 nafar** doktorantidan **2 nafari Finlandiyaga** stajirovkaga borish uchun suhbatdan muvaffaqiyatli o'tib, keyingi bosqichga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Ustuvor vazifalar doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi. Jumladan,

TALIS-2018 tadqiqoti so'rovnomasi asosida **12 446 nafar respondent** ishtirokida so'rovnoma-tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot natijalari **Singapur, Yaponiya, Saudiya Arabistoni, Finlandiya, Rossiya, Latviya, Niderlandiya, Amerika qo'shma shtatlari** kabi mamlakatlar natijalari bilan **qiyosiy tahlil** qilindi hamda tadqiqotning **1- va 2-qism** hisoboti, shuningdek,

Xalq ta'limi tizimi xodimlarining statistika asoslari, shuningdek, statistika faoliyati va dolzarb tahliliy statistik ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirib borish, uzluksiz ta'limning boshqaruv organlari, xalq ta'limi muassasalarining mutasaddilari hamda ta'lim sohasi bo'yicha qiziquvchilar

uchun mo'ljallangan ko'p nashrli statistik ko'rsatkichlar va tahlillar natijasi to'plam shaklida chop etilgan **"Xalq ta'limi raqamlarda"** nomli **Risola** 2022-yil 25-may kuni **Xalq ta'limi vaziri B.Saidov va A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rektori A.Radjiyev tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevga taqdim etish jarayoni "O'zbekiston - 24"** markaziy telekanalida keng yoritildi.

*Zamonaviy xalqaro talablar asosida o'rta ta'lim sifatini baholashning ilmiy asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tavsiya etish bo'yicha o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashning amaldagi mexnizmlarini tahlil qilish natijasiga ko'ra **STesting** elektron platformasidan foydalanish bo'yicha video yo'riqnoma tayyorlandi hamda **"PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro baholash dasturlariga maktab o'quvchilarini tayyorlash mexanizmlari"** nomli **metodik qo'llanma** ishlab chiqildi.*

Ilk bor **O'qituvchi kasb standarti** ishlab chiqildi. Standart asosida **133 859 nafar** o'qituvchi **7** ta kompetensiya bo'yicha malakasi oshirilib **kasbiy salohiyati 53,4% dan 85 %ga ko'tarildi.**

Xalq ta'limi vazirligi A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tuzilmasida 2022-yil 1-avgustda **"Xalq ta'limi xodimlarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash markazi"** tashkil etildi. Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi maktablarda direktor lavozimida faoliyat olib borish huquqini beruvchi menejerlik sertifikatini berish tartibini nazarda tutuvchi **"Maktab direktori lavozimi nomzodlariga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risida"** **nizom** ishlab chiqildi.

Xalq ta'limi tizimi xodimlarini muddatli (**3 va 5** yilda bir marotaba) malakasini oshirish tizimi **har yili malaka oshirishni** nazarda tutuvchi **uzluksiz kasbiy rivojlantirish** tizimiga **transformatsiya** qilindi. Mazkur tizimga o'tishdan oldingi va keyingi davrda avvalgi hamda yangi malaka oshirish tizimlarining afzalliklari va kamchiliklari bo'yicha tizim xodimlarining fikrini o'rganish maqsadida institut tomonidan asoslangan tadqiqotlar va xorijiy tahlillar asosida **2 marotaba** o'tkazilgan so'rovnoma **maktab direktorlariga 8 ta, fan o'qituvchilariga 7 ta** faoliyatga doir muhim bo'lgan **kompetensiyalar** aniqlandi.

Institutning <https://t.me/avloniyuz> kanalida **"Maktab muhitini kim boshqaradi?"** – nomli so'rovnoma tashkil qilindi. **5 kun** davomida **67 600 nafar** fuqaro ushbu savol bilan yaqindan tanishib, **15 700 nafar** fuqaro bevosita ovoz berish jarayonida ishtirok etishdi.

Shuningdek, **"Maktab rahbariyati mustaqilmi?"** – nomli so'rovnoma tashkil qilindi va **5 kun** davomida **69 700 nafar** fuqaro savol bilan tanishib, **16 000 nafar** fuqaro bevosita ovoz berish jarayonida ishtirok etdi. O'qituvchilar bilan hamkorlikda qaror tayyorlandi. Institutning "Xalq ta'limi tizimi statistikasini shakllantirish va tadqiq

qilish ilmiy-tadqiqot” bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan mazkur so‘rovnomalar natijalari tahlil qilindi va videoroliklar tayyorlandi.

“**Hayot davomida ta’lim olish**” tamoyili asosida, (har yili malaka oshirishga asoslangan) uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi joriy etildi.

Xalq ta’limi tizimida faoliyat yuritayotgan **500 000 nafardan** ortiq rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlarning har yili malakasini oshirish bo‘yicha jamoatchilik fikri hamda axborot-kommunikasiya texnologiyalari yordamida, xususan, malaka oshirishni maxsus elektron platformalar orqali tashkil etish imkoniyatlari o‘rganildi. O‘tkazilgan tahlillar va olingan takliflar asosida institut tomonidan “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi (**onlinedu.uz**) ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Xalq ta’limi tizimidagi xodimlarning ehtiyoji hamda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish asosida **kasbiy faoliyatga doir rahbar kadrlar** uchun **8 ta** va **pedagoglar** uchun **7 ta kompetensiya** belgilab olindi va xalq ta’limi xodimining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash bo‘yicha **diagnostika mexanizmi** ishlab chiqildi.

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasi orqali pedagog kadrlarning kasbiy bilim va ko‘nimalarini **kasbiy faoliyatga doir 7 ta kompetensiya** bo‘yicha diagnostikadan o‘tkazish, diagnostika natijalariga ko‘ra har bir pedagog uchun **individual kasbiy rivojlanish traektoriyasini (dasturini) shakllantirish** hamda mazkur traektoriyaga mos o‘quv modullarini o‘zlashtirishni ko‘zda tutuvchi **individual malaka oshirish** kurslarini taqdim etish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

2021-yil 1-martdan boshlab **2119 nafar fan metodistlari**, 15-iyuldan boshlab **6175 nafar umumta’lim maktablari direktorlari, kimyo-biologiya** fani o‘qituvchilari hamda 1-oktyabrdan boshlab **79852 nafar** boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari uchun platforma orqali tajriba-sinov tarzida uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari tashkil etilgan bo‘lsa, **2022-yildan** barcha fan yo‘nalishlari uchun malaka oshirish kurslarini platforma imkoniyatlaridan foydalangan holda “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi imkoniyatlari, platforma orqali onlayn malaka oshirish kurslarida o‘qish tartibi bo‘yicha joylarda **55 000 nafarga** yaqin xalq ta’limi xodimlari ishtirokida **seminar-treninglar** tashkil etildi.

Institut va hududiy malaka oshirish markazlari hamkorligida **onlinedu.uz** platformasi imkoniyatlaridan foydalangan holda xalq ta’limi tizimi ta’lim muassasalari xodimlarining **qishki ta’til kunlarini** mazmunli o‘tkazish maqsadida **29 ta fan yo‘nalishlari** bo‘yicha **qisqa muddatli onlayn malaka oshirish kurslari** tashkil etildi va ushbu kurslarga **316 877 nafar** pedagog o‘qituvchilar qamrab olindi.

26-fevral-2-mart kunlari A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti **“MFaktor” ta’lim markazi** bilan hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmasi boshliqlari hamda tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi mudirlari uchun **“Ta’limda liderlik”** qisqa muddatli

malaka oshirish trening-kurslari tashkil etildi. Institut rahbariyati tomonidan Xalq ta'limi boshqaruv organlari rahbarlari uchun **“Ta’limda liderlik”** qisqa muddatli kursi uchun ishlab chiqilgan trening-kurslari dasturi orqali amalga oshirildi.

“Ta’limda liderlik” qisqa muddatli malaka oshirish trening-kurslarida ishtirok ergan **15 nafar** shahar va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmasi boshliqlari va **206 nafar** tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi mudirlari **“Uzluksiz kasbiy ta'lim”** elektron platformasidan ro'yxatdan o'tishi ta'minlandi hamda boshqaruv kompetentligi bo'yicha yaratilgan onlayn malaka oshirish kurslarida o'qish imkoniyati yaratildi. **“Ta’limda liderlik”** mavzusida qisqa muddatli malaka oshirish **trening-kurslarining 9 ta videodarslari** elektron platformaga joylashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Bosh Prokuratura xodimlari uchun Bosh prokuratura Akademiyasi va A.Avloniy ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorligida **27-28-aprel** kunlari **vebinar** tashkil etildi. Ilmiy xodim B.Xurramov 1-kuni **“Asinxron mashg'ulotlarni tashkil etishda mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish usullari”** va 2-kuni **“Multimediali elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqishda foydalaniladigan dasturiy vositalari”** mavzusida dars mashg'ulotlari o'tkazildi.

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” elektron platformasi orqali **30 nafarga** yaqin tinglovchilariga platforma orqali o'qish bo'yicha metodik yordam ko'rsatildi. Vebinar (**ZOOM:<https://us06web.zoom.us/j/88535003530?pwd=c3pzalhkR0pvYXRUOHl3T2pFcEVYUT09>**) keng yoritildi.

Vazirlar Mahkamasining **“Ta'lim muassasalarida yo'l harakati qoidalari targ'ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 2022-yil 26-apreldagi 212-son qarori ijrosi yuzasidan Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakat xavfsizlik xizmati va A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti hamkorlikda **umumta'lim maktabi direktorlari** uchun o'quv uslubiy seminar tashkil etildi.

Seminarda yo'l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo'llarda, ayniqsa, maktablar joylashgan hududlarda avariya hamda maktab o'quvchilari orasida o'lim holatlarini keskin qisqartirish, harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish, shuningdek, jamoatchilikning ushbu sohada keng ishtirokini ta'minlash mavzularida ma'sul xodimlar tomonidan olib borilgan dars mashg'ulotlari va ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar to'g'risida 2022-yil 29-noyabr kuni Institut rektori A.Radjiyev hisoboti Oliy Majlis Senatiga taqdim etildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan **“O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi”** **5-bo'lim 6-bandida** belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash yuzasidan **Tojikiston Respublikasi** bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi va **42 nafar** pedagoglar uchun

onlayn hamda ishdan ajralgan holda oflayn o'qish uchun Surxandaryo viloyati "Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi"da malaka oshirish kurslarida ishtirok etgan **Tojikiston Respublikasining 10 nafar** pedagog xodimlarini "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasidan ro'yxatdan o'tkazilib kurs yakuni **sertifikatlarini** yuklab olish imkoniyati yaratildi.

Statistik ko'rsatkichlar tizimini solishtirma tahlil qilish asosida xalq ta'limi milliy statistik to'plamini tayyorlash va nashr ettirish vazifasi ijrosi bo'yicha Xalq ta'limi tizimi statistik ko'rsatkichlar tizimini tahlil etib borish maqsadida "**O'qituvchining bir kuni**" – nomli so'rovnoma natijalari va solishtirma tahlil ishlari to'g'risida **videorolik** tayyorlandi.

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot institutining <https://t.me/avloniyuz> va https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar kanallarida "**O'qituvchining bir kuni**" – nomli so'rovnoma tashkil qilini. 5 kun davomida **81800 nafar** foydalanuvchilar so'rovnoma savollari bilan yaqindan tanishib, ulardan **1210 nafari** bevosita ovoz berish jarayonida ishtirok etishdi. So'rovnoma natijalari Rossiya Federasiyasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishida keltirilgan statistik ma'lumotlar asosida solishtirma tahlil ishlari amalga oshirildi.

"**Barkamol avlod**" Respublika bolalar maktabining murojatiga asosan **216 ta** "**Barkamol avlod**" bolalar maktablarining **700 nafarga** yaqin rahbar va xodimlari uchun o'tkazilgan **o'quv seminarida** uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi bo'yicha qabul qilingan qarorlar mazmun-mohiyatini xalq ta'limi xodimlariga yetkazish, o'qituvchilar uchun malaka oshirishning muqobil shakllarini joriy etish hamda pedagoglar orasida ushbu muqobil malaka oshirish shakllarini keng targ'ibot ishlarini olib borish, "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasi imkoniyatlari, platforma orqali malaka oshirish kurslarida ishtirok etish tartibi bo'yicha ma'ruzalar qilindi. O'qituvchilar uchun malaka oshirishning muqobil shakllarini joriy etish hamda targ'ibot ishlarini keng olib borish bo'yicha **tahliliy ma'lumot** tayyorlandi.

Xalq ta'limi tizimidagi tegishli rahbarlik lavozimlariga munosib xodimlarni joy-joyiga qo'yish tartiblarini o'rganish natijalari bo'lim mudiri M.Badalova tomonidan Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida **10 nafar** viloyat va tuman xalq ta'limi bo'limi kadrlar bilan ishlash boshqarmasi xodimlari, **260 nafar** maktab direktorlari, **31 nafar** "**Barkamol avlod**" bolalar maktablari direktorlari, **93 nafar** sinf rahbarlari, **70 nafar** maktab o'quvchilari, **13 nafar** ota-onalar o'rtasida **8** turdagi va **188** ta aniqlashtiruvchi indikatoridan iborat so'rovnomalar o'tkazildi. **O'rganish natijasida** ilmiy-tadqiqot bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar vazirlikga kiritildi, shuningdek, **maktab direktorlarini tayinlash** bo'yicha **videorolik** tayyorlandi.

2022-yil 1-aprelda **OAK** ro'yxatiga kiritilgan "**Xalq ta'limi: muammolar, izlanishlar, echimlar**" nomli ilmiy-nazariy va o'quv-uslubiy **jurnalida** "**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirishda variativ ta'limning ahamiyati**"

nomli va 2022-yil 31-may kuni **“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirishda variativ ta’limning ahamiyati”** nomli maqola chop etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarorida keltirilgan vazifalar ijrosi, xalq ta’limi sohasidagi muammolarni tahlil qilish va ularga amaliy yechim izlab topish mexanizmini yo‘lga qo‘yish hamda sohada bajarilgan ishlar jamlangan **128** betlik **hisobot nashr** qilindi.

2. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosi

Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida institutining “Uzluksiz kasbiy ta’lim” platformasida Milliy o‘quv dasturi va ushbu dastur asosida yangi metodikalarni o‘quv jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha barcha fan yo‘nalishlari uchun kurs kontentlarini joylashtirish qismi yaratildi.

“Ommabop kurslar” qismiga **“Milliy o‘quv dasturi mazmun va mohiyatini o‘rganish asoslari”** malakasini oshirish kursi yuzasidan **36 ta videodars** joylashtirilib, platformada o‘qituvchilar uchun undan foydalanish imkoniyati yaratildi.

2022-yil 15-dekabr holati bo‘yicha ushbu Milliy o‘quv dasturi asosida yangi metodikalarni o‘quv jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha yaratilgan kursni **10530 nafar** o‘qituvchilar o‘zlashtirgan.

Respublika ta’lim markazi va A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti hamkorligida ishlab chiqilgan **o‘quv dasturlari** asosida **videodarslar** tayyorlanmodqa.

Izoh: “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasida joylashtirilgan **“Milliy o‘quv dasturi mazmun va mohiyatini o‘rganish asoslari”** mavzusidagi malaka oshirish kursi kontent materilalarini ko‘rish uchun unga **havola** hamda **login va parol** ilova qilinadi.

Login: 111234567

Parol: 111234567

Havola: <https://onlinedu.uz/courses/view/boshlang-ch-sinf-o-qituvchilari-uchun-milliy-o-quv-dasturini-mazmun-va-mohiyati-o-rganish-asoslari>, <https://onlinedu.uz/courses/view/camb>

Bundan tashqari Milliy o‘quv dasturi mazmun-mohiyati bo‘yicha rahbar va fan o‘qituvchilarining bilim ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida **“Ustozlar Milliy Forumi”** bo‘yicha tayyorlangan **37 ta** video taqdimotlar ishlab chiqilib platformaga joylashtirildi hamda o‘qituvchilar uchun undan foydalanish imkoniyati yaratildi.

2022-yil 15-dekabr holati bo‘yicha yangi metodikalarni o‘quv jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha yaratilgan kursni **330 nafar** o‘qituvchilar o‘zlashtirgan.

Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 1-martdagi “Umumta’lim maktablari pedagoglari bilimini yaxshilash hamda

yangicha o‘qitish uslublarini tushuntirish bo‘yicha **“Mobil metodik guruhlar”** faoliyati tartibini belgilash to‘g‘risida” 8-q/q va 9-q/q-sonli hamda 2022-yil 6-iyundagi “Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari, xorijiy mutaxassislar, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta‘lim tashkilotlarining malakali xodimlaridan iborat trenerlar guruhlarini faoliyati tartibini belgilash to‘g‘risida” 28-q/q va 26-q/q-sonli qo‘shma qarorlari qabul qilindi.

Mazkur qo‘shma qarorlar bilan maktab o‘qituvchilariga metodika bo‘yicha yordam beruvchi **“Mobil metodik guruhlar”**, **“Cambridge” tajribasi** asosida trenerlar tayyorlash va maktab o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv dasturi” va **“Sayyor o‘quv kurslar”**ning faoliyati davom etmoqda. Jumladan, respublika bo‘yicha jami **17 ta “Mobil metodik guruhlar”** tashkil etilib, yil yakuniga qadar **397 ta** umumta‘lim maktablari tanlab olindi.

“Mobil metodik guruhlar”ga oliy ta‘lim muassasalari, xalq ta‘limi boshqarmasi hamda Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari rahbarlari hamda **universitet, akademik litsey va umumta‘lim maktablarining yetakchi o‘qituvchilari** jalb qilindi. Joriy yil sentabr oyidan boshlab barcha hududlarda belgilangan tartibda **“Mobil metodik guruhlar”** faoliyati davom etmoqda.

Xalq ta‘limi vazirligi tizimidagi malaka oshirish muassasalari professor-o‘qituvchilari tarkibidan yangi zamonaviy metodikalar (*mustaqil ta‘lim olish metodikalari, kompetensiyaga asoslangan Cambridge metodikalari*)ni keng targ‘ib etish va o‘qitish uchun trenerlarni tayyorlash bo‘yicha nomzodlar ro‘yxati shakllantirildi va Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga taqdim etildi.

Ilk bosqichda trenerlarni tayyorlash kurslariga Toshkent shahridagi xorijiy oliy ta‘lim muassasalaridan hamda Xalq ta‘limi tizimi tashkilotlaridan jami **55 nafar** professor-o‘qituvchilar jalb etilgan.

Bu trenerlar yordamida oliy ta‘lim muassasalari, xalq ta‘limi vazirligi tasarrufidagi milliy markazlar professor-o‘qituvchilari va tajribali pedagoqlardan iborat hududiy trenerlar tayyorlanib, ular ko‘magida boshqa o‘qituvchilarga ham yangi metodikalarni o‘rgatish ko‘zda tutilgan.

“Cambridge” tajribasi asosida ishlab chiqilgan o‘quv dastur asosida Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bilan hamkorlikda Toshkent shahar Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazida 2022-yil 18-apreldan 30-aprelgacha davom etgan o‘quv kurslarida Toshkent shahar, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari Oliy ta‘lim muassasalaridan jami **561 nafardan** ortiq trenerlar o‘qitildi.

“Cambridge” tajribasiga asoslangan o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish bo‘yicha sayyor o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish maqsadida trenerlar respublika bo‘yicha **2034 ta** maktabning **101 199 nafar** pedagog xodimlarining malakasini oshirdilar.

Respublika bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning **111 004 nafari (22,1%)**ni toifaga ega bo'lmagan o'qituvchilar tashkil qiladi. Mazkur o'qituvchilar Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-yanvardagi 18-son buyrug'i asosida "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasidan ro'yxatdan o'tkazilib, uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida bilim ko'nikmalari diagnostikadan o'tkazilmoqda. Hozirda elektron platforma orqali **460 124 nafar** maktab o'qituvchilari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan **360 085 nafari (78,3%)** malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tamomlab **sertifikat** olgan.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi "Xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-22-son farmoyishining tegishli bandlari ijrosi

"Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi orqali pedagog kadrlarning kasbiy bilim va ko'nimalarini kasbiy faoliyatga doir **7 ta kompetensiya** bo'yicha diagnostikadan o'tkazish, diagnostika natijalariga ko'ra har bir pedagog uchun **individual kasbiy rivojlanish traektoriyasini (dasturini) shakllantirish** hamda mazkur traektoriyaga mos o'quv modullarini o'zlashtirishni ko'zda tutuvchi **individual malaka oshirish** kurslarini taqdim etish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

2022-yilda 33 ta fan yo'nalishi bo'yicha "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi orqali Uzluksiz kasbiy rivojlanish kurslari faollashtirildi. Jumladan:

21-fevraldan umumta'lim maktablarining direktorlari, ingliz va fransuz tili;

23-fevraldan kimyo, biologiya va fizika fani;

2-martdan ona tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, tojik tili va adabiyoti, Qoraqalpoq tili va adabiyoti, matematika, davlat (o'zbek) tili, davlat (Qoraqalpoq) tili, rus (o'zbek va qardosh tillardagi sinflar) tili fani;

4-apreldan geografiya, informatika va axborot texnologiyalari, tarix, davlat va huquq asoslari, iqtisodiy bilim asoslari, tarbiya, maxsus ta'lim muassasalari tarbiya fani, yordamchi maktab internatlar tabiat va geografiya, boshlang'ich ta'lim;

11-maydan umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, umumiy o'rta ta'lim maktabi (maktab-internat) ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani, musiqa madaniyati, tasviriy san'at va chizmachilik, texnologiya fani, yordamchi maktab internatlari texnologiya fani, kar, zaif eshituvchi, ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi bolalar maktab-internatlari texnologiya fani, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari mutaxassis (psixolog, defektolog, logoped) xodimlari, turkman tili va adabiyoti kurs kontent materiallari ishlab chiqildi hamda "Uzluksiz kasbiy ta'lim" platformasi orqali xalq ta'limi xodimlarining bilim va pedagogik mahoratini rivojlantirishga qaratilgan onlayn malaka oshirish imkoniyati yaratildi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kurslari uchun kontent materiallari, jumladan, **1120 ta** ma'ruza, **1120 ta** taqdimot, **1120 ta** videodars, **7840 ta** qo'shimcha adabiyotlar, **7308 ta** test topshiriqlar yaratildi va elektron platformaga joylashtirildi.

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” elektron platformasidan 2022-yil 15-dekabr holatiga **10 357 nafar** umumta'lim maktablar rahbarlari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan **7 300 nafarga (70,5%)** yaqini kurslarni muvaffaqiyatli tamomlab **sertifikat** olgan.

Direktorlarning faoliyatga doir muhim sanalgan kompetensiyalari bo'yicha **diagnostika** va **o'zlashtirish** natijalari tahlillari o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari **44,1% (44,3/88,4%)**ga ortganini ko'rsatmoqda. Masalan,

- Boshqaruv kompetensiyasi **47,1/95,7%**
- Huquqiy kompetensiya **51,7/85,3%**
- Moliyaviy-iqtisodiy kompetensiya **43,1/89,0%**
- Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetensiyasi **48,5/91,2%**
- Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik kompetensiyasi **31,7/89,4%**
- Kommunikativ kompetensiya **52,2/82,0%**
- Inklyuziv ta'limni joriy etish kompetensiyasi **45,3/86,5%**
- O'zini-o'zi va kadrlarni rivojlantirish kompetensiyasi **34,8/88,1%**

Bundan tashqari, “Uzluksiz kasbiy ta'lim” elektron platformasidan 2022-yil 15-dekabr holatiga ko'ra **462 015 nafar** umumta'lim maktablar **pedagog xodimlar** ro'yxatdan o'tgan bo'lib, shundan **334 460 nafari (72,4%)** kurslarni muvaffaqiyatli tamomlab **sertifikat** olgan.

Davriylikka asoslangan malaka oshirish tizimi (12 oyda **103 ming** nafarga yaqin tinglovchi) dan uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi (12 oyda **473 854 nafar** tinglovchi) orqali malaka oshirgan tinglovchilar soni qariyb **4.6 barobar (460%) ko'p**.

O'qituvchilarning faoliyatga doir muhim sanalgan kompetensiyalari bo'yicha diagnostika va o'zlashtirish natijalari tahlillari o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari **34,8%**ga ortganini ko'rsatmoqda. Jumladan,

- Kommunikativ kompetentlik **62,8/91,7%**
- AKT va media savodxonlik kompetentligi **55,0/87,0%**
- O'z-o'zini rivojlantirish, o'z ustida ishlash kompetentligi **58,6/87,6%**
- Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetentligi **44,6/86,9%**
- Inklyuziv ta'limni joriy etish kompetentligi **45,4/84,8%**
- Pedagogik kompetentligi **56,0/86,5%**

O'quvchilarning kompetensiyalarini xolisona baholash kompetentligi **47,9/86,5%**.

Xorijda (Tojikiston Respublikasi) faoliyat ko'rsatayotgan o'zbek tili o'qituvchilari bilan o'zaro tajriba almashishni yo'lga qo'yish maqsadida o'zbek tili fani bo'yicha **36 soatli** qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Ushbu kurslarda **48 nafar** o'qituvchilar o'z malakasini oshirdi.

“Ommabop kurslar” qismiga **“Milliy o'quv dasturi mazmun va mohiyatini o'rganish asoslari”** malaka oshirish kursi yuzasidan **39 ta** videodars joylashtirilib, platformada o'qituvchilar uchun undan foydalanish imkoniyati yaratildi.

Davlatimiz rahbari topshiriqlariga muvofiq, maktab o'qituvchilari yangi metodika asosida qayta tayyorlanmoqda. Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamkorligida **“Cambridge” tajribasi** asosida trenerlar tayyorlanib, maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish kurslari tashkil etildi. Ushbu kurslarning birinchi bosqichi Toshkent Xalqaro Vestminster universitetida olib borilib, kaskad usulida hududlarda davom ettirildi.

“Cambridge” tajribasiga asoslangan o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish bo'yicha sayyor o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etish maqsadida respublika bo'yicha **2034 ta** maktabning **101 199 nafar** pedagog xodimlarining malakasi oshirildi.

Xalq ta'limi vazirligi A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan **“Cambridge” tajribasi** asosida video kontentlar yaratilib, “Uzluksiz kasbiy ta'lim” elektron platformasiga joylashtirildi. Ushbu maqsadli kurs barcha fan yo'nalishlari bo'yicha platformada **“Pedagogik kompetentlik”** moduliga **“Cambridge” tajribasi** asosida trenerlar tayyorlash va maktab o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish nomi bilan joylashtirilgan va kurs uchun **9 ta'lim krediti** ajratilgan. 2022-yilning 15-dekabr holatiga **87 208 nafar** pedagog o'qituvchilar ushbu kursni o'zlashtirgan.

Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 24-dekabrda “Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2022-2023-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida”gi 414-son buyrug'ida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining **3-sinf boshlang'ich sinf rahbarlari** va **6-sinf “Fizika”, “Biologiya” va “Geografiya” fanlari** o'qituvchilari uchun **Tabiiy fan (Science)**ning mazmun-mohiyati bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish hamda o'quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan o'qituvchilarga sertifikat berish vazifasi ijrosi bo'yicha Xalq ta'limi vazirligi, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, Respublika ta'lim markazi va **UNISEF xalqaro tashkiloti** hamkorligida joriy yilning 14-16 iyul kunlari umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi asosida **Tabiiy fanlar (Science)**ni maktabda sifatli o'qitish bo'yicha **o'quv-seminari** tashkil etildi.

O'quv seminar yakunida milliy o'quv dasturini o'qitish bo'yicha **50 nafar** trenerlar tayyorlandi. Mazkur trenerlar Milliy o'quv dasturi asosida maktabda **Tabiiy fanlar (Science)**ni sifatli o'qitish bo'yicha o'qituvchilar uchun qisqa muddatli o'quv kurslarida trenerlik qilmoqdalar.

Xalq ta'limi vazirligi tizimida faoliyat ko'rsatayotgan **3-6-7-10-sinf** o'qituvchilarining milliy o'quv dasturi asosida qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida o'qitishni tashkil etish maqsadida A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan **72 ta** videodarslar (shu jumladan ma'ruza mantlari, mavzuga oid taqdimotlar, videokurslar va har bir mavzu yuzasidan test savollari banki) yaratildi va Institutning **uzlms.uz** elektron platformasiga joylashtirildi.

Mazkur platforma orqali **3-sinf boshlang'ich sinf rahbarlari** va **6-sinf geografiya, biologiya, fizika fani o'qituvchilari** uchun tashkil etilgan **“Tabiiy fanlar bo'yicha milliy o'quv dasturi asosida o'qituvchilar malakasini oshirish”** qisqa muddatli o'quv kursida bugungi kunga qadar **70 587 nafar** o'qituvchilar ro'yhatdan o'tgan bo'lib, shundan **60 842 nafari** malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli yakunlab, **sertifikatga** ega bo'lishdi.

“Milliy o'quv dasturi mazmun va mohiyatini o'rganish asoslari” kursi bo'yicha **39 ta** videodars, **“Ustozlar Milliy Forumi”** bo'yicha **37 ta** video taqdimotlar, biologiya, kimyo, fizika va astronomiya va matematika fanlari bo'yicha **toifaga tayyorlash kurslari, Xitoy tili, STesting, PISA** tadqiqotlarida matematik savodxonlik, Teaching English Through English, Mental arifmetika, Xalq ta'limi xodimlarini OIV/OITSkasalligini oldini olish va unga qarshi kurashishda tibbiy bilimini va xabardorligini oshirish, Mediasavodxonlik va mediata'lim hamda Boshlang'ich sinflar uchun tabiiy-ilmiy fanlarni o'qitish metodikasini **174 200 nafar** o'qituvchilar bilim va ko'nikmalari o'zlashtirgan.

4. Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 29-yanvardagi “Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 21-son buyrug'i ijrosi

Pedagogika markazlarni zarur mebellar, o'quv laboratoriya asbob-uskunalari, videokonferensiya qurilmalari, kompyuter texnikasi va boshqa inventarlar bilan jihozlash topshirig'i ijrosi bo'yicha barcha Pedagogika markazlaridan ehtiyojlar olindi va Xalq ta'limi vazirligiga yuborildi (*Institutning 2022-yil 2-fevraldagi 01/09-117-sonli xati*).

5. Xalq ta'limi vazirligining Hay'at majlisi qarorlari, buyruqlari va chora-tadbirlarida berilgan tegishli vazifalar ijrosi

Xalq ta'limi vazirligida 2021-yil 30-dekabrda o'tkazilgan 19-sonli Hay'at yig'ilishida **“Ijro.gov.uz”** tizimiga kiritilgan vazirlikning topshiriqlari, shuningdek, jismoniy hamda yuridik shaxslarning og'zaki va yozma murojaatlari ijrosi ta'minlanmoqda. Xususan,

2022-yilda institutga jismoniy va yuridik shaxslardan **jami 43 ta** yozma va og‘zaki murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, shundan **10 ta** murojaatda ish haqi to‘g‘risida ma‘lumotnoma, **7 ta** murojaatda malaka oshirish kurslarida o‘qiganlik to‘g‘risida arxiv ma‘lumotnomasi, **3 ta** murojaatda qayta tayyorlov diplomi dublikatini tiklab berish, **2 ta** murojaatda nohaq ishdan bo‘shatilganligi to‘g‘risida, **2 ta** murojaatda qayta tayyorlov diplomini haqqoniyligi to‘g‘risida ma‘lumotnoma, **19 ta** murojaatda turli xil masalalar haqida so‘ralgan.

Shuningdek, institut “Umumiy va arxiv” bo‘limida yuqori tashkilotlardan **797 ta** hujjat kelgan, shundan, **4 ta** O‘zbekiston Respublikasi Administratsiyasi topshirig‘i, **2 ta** nazorat reja, **73 ta** Xalq ta‘limi vazirligining buyrug‘i, **1 ta** qo‘shma qaror, **45 ta** chora-tadbirlar rejasini, **1 ta** Ha‘yat qarori, **3 ta** Yo‘l xarita, **15 ta** bayon, **3 ta** Vazirlar Mahkamasi qarori, **30 ta** Vazirlar Mahkamasi topshirig‘i, **618 ta** xat, shuningdek, **420 ta** turli tashkilotlardan kelib tushgan hujjatlar ro‘yxatga olingan.

2022-yilda rektorning asosiy faoliyatiga doir **125 ta** institutning ichki buyruqlari tasdiqlanib, ijrosi nazoratga olindi.

Bundan tashqari, institutning “**Ilmiy va pedagogik xizmatlar markazi**”ga 2022-yil davomida Prezident administratsiyasi, Ishonch telefoni, Xalq qabulxonalari va boshqa yuqori tashkilotlar tomonidan qayta tayyorlash kurslari bo‘yicha markazga **jami 41 ta murojaat** kelib tushdi va o‘rnatilgan tartibda murojaatlarga javob berildi.

Ilmiy va pedagogik xizmatlar markaziga turli savollar (*bitiruvchilar diplomini olishga, o‘qish uchun kerakli bo‘lgan hujjatlarni so‘rashga, hujjat topshirishga, bitiruv ishi va amaliyot daftarini topshirishga, kuryer va pochta xizmatlari*) bilan **jami 1440 nafar** qayta tayyorlash kursi tinglovchilari, jismoniy va yuridik shaxslar murojaat qilgan. Barcha murojaatchilarni qiziqtirgan savollariga belgilangan tartibda javob berilgan. Shuningdek **5000 ortiq** a‘zolari bor https://t.me/avlony_qayta_tayyorlov qayta tayyorlash guruhi telegramm chatiga murojaatchilar tomonidan berilgan **3000 dan** ortiq savollarga javob berilgan.

II. INSTITUT ILMIY KENGASHIDA MUHOKAMA ETILADIGAN MASALALAR

Institutning 2022-yil uchun tasdiqlangan ilmiy kengash rejasiga muvofiq **4 marta** (2022-yil 27-yanvar **1-son**, 2022-yil 28-mart **2-son**, 2022-yil 31-may **3-son**, 2022-yil 26-iyul, **4-son**) yig‘ilish o‘tkazildi. Unda **jami 16 ta** masala muhokama qililib, **34 ta** qaror qabul qilindi.

Institut qayta tashkil etilishi munosabati bilan 2022-yil 31-oktabrdagi 1-son kengashda **9 ta** masala yuzasidan **33 ta** qaror va 2022-yil 27-dekabrdagi 2-son kengashda **8 ta** masala bo‘yicha **24 ta** qaror qabul qilindi.

III. DIREKTOR HUZURIDAGI ISHIAB CHIQRISH YIG‘ILISHIDA KO‘RILADIGAN MASALALAR

2022-yilda **11 marta** rejadagi (2022-yil 30-yanvar **1-son**, 2022-yil 28-fevral **2-son**, 2022-yil 30-mart **3-son**, 2022-yil 30-aprel **4-son**, 2022-yil 30-may **5-son**, 2022-yil 30-iyundagi **6-son**, 2022-yil 22-iyul **7-son**, 2022-yil 26-avgust **8-son** 2022-yil 23-sentabr **9-son**, 2022-yil 21-oktabr **10-son**, 2022-yil 18-noyabr **11-son**, 2), **2 marta navbatdan tashqari** (2022-yil 9-mart, 2022-yil 8-aprel) rektor huzuridagi ishlab chiqarish yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda jami **30 ta** masala muhokama qilinib **36 ta** qaror qabul qilindi.

IV. ILMIY-TADQIQOT ISHLARI

Ilmiy ishlarni samarali tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy ta’limdan keyingi ta’lim to‘g‘risida”gi 304-son va 2020-yil 6-noyabrdagi “Ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash jarayonlarining shaffofligini ta’minlash va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 696-son qaroriga asosan institutda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, tayanch doktorant, maqsadli tayanch doktorant, stajor-tadqiqotchi va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish, ularga tashkiliy, ilmiy va metodik yordam ko‘rsatish maqsadida institutning **2022-yil 5-yanvarda 01-03-son** buyrug‘i qabul qilindi.

Mazkur buyruq bilan tadqiqotchilar ilmiy seminarlari yillik rejasi tasdiqlandi va izlanuvchilar ilmiy-tadqiqot bo‘limlariga birlashtirildi.

Institut ilmiy-tadqiqot bo‘limlari bilan hamkorlikda 2022-yilda **10 marotaba** ilmiy-amaliy seminarlar tashkil etildi. Seminarlarda doktorantlar faoliyati, tadqiqot natijalari tahlil qilindi va ularga turli ilmiy ko‘rsatmalar va tavsiyalar berildi. Institut professor-o‘qituvchilari tomonidan mahorat darslari tashkil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir maslahatchisining 2021-yil 30-yanvardagi №08-08/1-2552-son bayoni 4- va 5-bandlarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash uchun 2022-yil har chorakda izlanuvchilar faoliyatini tanqidiy monitoring o‘tkazish maqsadida Institutning 2022-yil 5-yanvardagi 01-02-son buyrug‘iga asosan **mart, iyun, sentabr, dekabr** oylarida tayanch doktorantlar, maqsadli doktorantlar va stajor-tadqiqotchilar faoliyatining samaradorligi bo‘yicha shaxsiy rejada belgilangan vazifalarni bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotlari qabul qilindi. Monitoring natijalari Ilmiy kengash yig‘ilishi muhokamasiga kiritildi.

Institutning Axborot resurs markazi tomonidan Magistratura va qayta tayyorlov yo‘nalishlari uchun asosiy, qo‘shimcha adabiyotlar va elektron linklardan iborat “Pedagogik korzinka” yaratildi va **144 nomdagi** adabiyot institut saytiga joylashtirildi.

Axborot resurs markazida telegram ijtimoiy tarmog‘ida murojaatbot yaratilib, ilmiy izlanuvchilar va tinglovchilarga elektron manbalar topishda ko‘maklashib

kelinmoqda. Institutning magistratura va doktorantura bo'limi talabalariga muntazam ravishda adabiyotlar topishda yordam berib kelinmoqda.

Shuningdek, https://t.me/Avloniy_ARM kanalida **57 ta** maqola (blogpost), **22 ta** dissertatsiya, qayta tayyorlash tinglovchilari uchun **14 ta** fandan majmua, uslubiy qo'llanma, **32 ta** adabiyot, slaydlar, **“Yangi O'zbekiston”** gazetasi elektron sonlari, 2022-2023 o'quv yili uchun fan darsliklari, barcha fanlardan dastur va rejalar kiritildi.

V. BOSHLANG'ICH TA'LIM

Xalqaro boshlang'ich ta'lim sifatini baholash dasturlarining amaldagi xorijiy va milliy mexanizmlari o'rganildi hamda qiyosiy tahlil qilindi. O'rganilgan ma'lumotlar va qiyosiy tahlil asosida **PIRLS** xalqaro baholash tadqiqotlariga oid **videorolik** tayyorlandi. (<https://t.me/avloniyuz/4611>).

Amaldagi xorijiy va milliy boshlang'ich ta'lim sifatini baholash mexanizmini o'rganish, tanqidiy qiyosiy tahliliy ma'lumotlar asosida 2022-yil iyun oyida, II-tomda N.Tashtemirovaning **“O'quvchilarning stoxastik savodxonligini rivojlantirishda TIMSS topshiriqlarining o'rni”** mavzusidagi **maqola** “Ta'limdagi xalqaro tadqiqotlarning Yangi O'zbekiston taraqqiyotidagi o'rni” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamida chop etildi. Amalga oshirilgan tadqiqot natijalarini ommalashtirish maqsadida OAK tavsiya etgan jurnallarda ilmiy maqola xalqaro va respublika anjumanlariga tezis tayyorlash maqsadida:

- N.Tashtemirovaning Sirdaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazida 2022-yil 10-11-iyun tashkil etilgan “Ta'lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida “O'quvchilarning o'quv yutuqlari va kompetensiyalarini baholash” mavzusidagi **tezis**;

- N.Tashtemirovaning **“PIRLS ta'lim sifatini baholash xalqaro dasturi: xorijiy tajriba va tahlil”** mavzusida Analytical Journal of Education and Development, Volum: 02, Issue: 01/2022, ISSN: 2181-2624 jurnalidagi **maqolasi**;

- N.Tashtemirovaning “Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarida stoxastikani o'qitish metodikasi” mavzusida **“Fizika, matematika va informatika”** ilmiy-uslubiy jurnalning 2022-yil, 3-sonida **maqola** chop etildi.

Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturlari loyihalarini ishlab chiqish vazifasi yuzasidan **Tarbiya fani milliy o'quv dasturi mazmunini tanqidiy va tahliliy o'rganildi, natijalar** O'zbekiston Milliy universiteti OAK ro'yxatidagi **“O'zMU xabarnomasi”** jurnaliga maqola sifatida mart oyida chop etish uchun topshirildi. Shuningdek, bajarilgan ishlar yuzasidan video rolik uchun ma'lumot tayyorlandi, taklif va tavsiyalar Respublika ta'lim markaziga yuborildi.

“Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda sinf o’quvchilarining optimal sonini belgilash” yo’nalishi bo’yicha muammoga taalluqli mavzular banki (10 ta mavzu) shakllantirildi hamda doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va magistrnlarga dissertatsiya mavzulari sifatida foydalanish uchun “Uzluksiz kasbiy ta’lim” kafedrasida, Doktorantura va magistratura bo’limi va Ilmiy kotibga taqdim etildi. Shuningdek, mavzular doirasida so’rovnoma tashkil etildi hamda olingan natijalar tahlili asosida tayyorlangan infografika va video rolik Xalq ta’limi vazirligi va institut telegram kanallarida hamda **Kun.uz kanaliga** joylashtirildi.

Xorijiy mamlakatlar (Finlandiya, Estoniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqalar) tajribalarni o’rganish va qiyosiy tahlil qilish natijalari bo’yicha videorolik tayyorlandi <https://youtu.be/7z62SgfDxag> hamda amaldagi mavjud holatni fanlar kesimida tanqidiy va qiyosiy tahlil qilish natijasida amaldagi o’quv dasturining fanlar kesimida tahlili. «**Maktab va hayot**». Ilmiy-metodik jurnal. № 2-sonli. (166/2022). B. 43-44;

A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi muammolarini o’rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti / Ta’lim sifatin baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi;

“Xalqaro baholash dasturlari va ta’lim sifatinin tadqiq etishning dozlarb muammolari” nomli xalqaro konferensiya materiallari. M.Mansurov. A.Ziyodov. **“Yaponiya va O’zbekistonning tabiiy fanlar (Scienc) o’quv dasturlarining o’ziga xos hususiyatlari”**. B. 400-405. T-2022 chop etildi.

Andijon, Farg’ona va Namangan viloyatlarida tajriba sinov ishlarini olib borish natijasiga ko’ra, ASEAN Journal on Science & Technology for Development Vol 39, No 4, 2022, 500-513 [500 10.5281/zenodo.7375348](https://zenodo.org/record/7375348) elektron jurnalda «Current situation of legal competence of school principals and identified problems: on the example of Kashkadarya region» elektron jurnalda chop etildi, shuningdek, <https://youtu.be/4Em2dQAWqDI> **YouTube ga videorolik tayyorlandi.**

Ilmiy-tadqiqot natijalari 1-qism A.Radjiyev, F.Karimov, H.Botirov, M.Mansurov, M.Vohidova. “Boshlang’ich ta’lim o’quv dasturlari mazmunini va o’quvchilarni kasbhunarga yo’naltirishni takomillashtirish zarurati” mavzulari bo’yicha ilmiy-tadqiqot natijalari yuzasidan tahliliy hisobot. “Max Pristi” nashiryoti. T-2022. b.77.

Tarbiya fani milliy o’quv dasturi mazmunini tanqidiy va tahliliy o’rganish, shuningdek, takomillashtirish yuzasidan M.Vohidova. **“Ta’lim va tarbiya o’rtasidagi bog’liqlik”**. B.360-365. T-2022. **11-Mart** hamda <https://youtu.be/7z62SgfDxag> videorolik tayyorlandi.

“Tarbiya” fani milliy o’quv dasturi mazmunini tanqidiy, tahliliy o’rganildi va Respublika ta’lim markaziga Tarbiya fani o’quv dasturlari mazmunini takomillashtirish bo’yicha tahlil takliflar (2022.28.03 *Institutining 01/09-346-son xati*) yuborildi. Respublika ta’lim markazining (2022-yil 20-apreldagi 01/11-01/11-519-son hamkorlik) javob xati olindi.

Matematika fani milliy o’quv dasturi mazmunini tanqidiy va tahliliy o’rganish, shuningdek, takomillashtirish yuzasidan 2022-yil 28-iyunda vazirlik, institut xodimlari, matematika fan o’qituvchilari uchun seminar tashkil etildi. Seminar Yaponiyaning

KAWAI JYUKU Group kompaniyasining bir tarmog‘i **KEI Advanced** kompaniyasi hamda **Hapiral Test Solution** kompaniyasi hodimlari Sakata Xiramitsu, Abe San, Beppu Sanlar tomonidan olib borildi.

Respublika ta‘lim markazi tomonidan chiqarilgan matematika fani uchun milliy o‘quv dasturi mazmunini tanqidiy va tahliliy o‘rganildi, shuningdek, takomillashtirish yuzasidan qiyosiy jadval ishlab chiqildi. Tayyorlangan takliflar 2022-yil 26-avgustda 01/09-1128-son xat bilan Xalq ta‘lim vazirligiga va Respublika ta‘lim markaziga jo‘natildi.

Texnologiya fani milliy o‘quv dasturi mazmunini tanqidiy va tahliliy o‘rganish, shuningdek, takomillashtirish yuzasidan M.Mansurov. Maktab o‘quvchilarini texnologiya fani mashg‘ulotlarida tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash. O‘quv qo‘llanma. T-2022. B.138 va <https://youtu.be/9MeM8X9b73w> videorolik tayyorlandi.

2022-yil sentabr oyida Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida “**Siz tahsil berayotgan sinfda necha nafar o‘quvchilar ta‘lim olmoqda?**”, “**Bitta sinfda necha nafar o‘quvchining ta‘lim olishini xohlar edingiz?**”, “**Sizningcha ta‘lim sifatining yuqori bo‘lishi o‘quvchilar soniga bog‘liqmi?**” – nomli tashkil qilingan so‘rovnoma **11 900 nafar** foydalanuvchi savol bilan tanishib, ulardan **3 420 nafari** bevosita ovoz berish jarayonida **ishtirok etdi**.

So‘rovnoma ishtirokchilari sinfda o‘quvchilar **25 nafari**dan ko‘pligi ta‘lim sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlashdi.

Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida barcha umumta‘lim maktablari joylashuvi (viloyat markazi, shahar va tuman markazi, qishloq) asosida sinfdagi o‘quvchilar soni bo‘yicha **1 bosma taboq** hajmda broshyura shaklida tahliliy ma‘lumot tayyorlandi.

Tadqiqot natijalarini ommalashtirish maqsadida bo‘lim mudirlari A.Ibragimov, I.Mexmonov “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda innovatsion boshqaruv faoliyatini tashkil etish muammolari” mavzusida Xalq ta‘lim jurnalida 2022-yil mart oyi sonida, ilmiy xodimlar I.Muradov, F.Muradova “Yoshlarning innovatsion faolligini oshirishda **“PISA”** baholash tadqiqoti natijalarining ta‘siri”. “Xalqaro baholash va ta‘lim sifatini tadqiq etishning dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2022-yil 11-mart oyi sonida A.Ibragimov, I.Muradov Hududlarda maktab sinflardagi holat ta‘lim sifatiga ta‘sir ko‘rsatmoqdami? “Umumiy o‘rta ta‘limni rivojlantirish strategiyasi yo‘nalishida fundamental va amaliy tadqiqotlar” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyada 2022-yil 15-noyabr kuni maqolalari bilan ishtirok etishdi.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini aniqlovchi samarali diagnostika qilish bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rgangan holda ularning ehtiyojlarini aniqlash mexanizmlarini ishlab chiqish va qayta tayyorlash, malaka oshirish kurslarining mazmunini takomillashtirish bo‘yicha **UNICEF** xalqaro tashkiloti bilan hamkorligida tashkil etilgan “Xalqaro baholash va ta‘lim sifatini tadqiq etishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya “Xalqaro

tajribalar misolida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari kasbiy kompetentligini samarali diagnostika tahlillari" nomli tezis bilan ishtirok etildi.

Kasbiy kompetentlikni samarali diagnostika qilish bo'yicha xalqaro tajribalar (Finlandiya, Germaniya, Janubiy Koreya) **tahlil qilindi** va tahlillar asosida **1 ta tesiz chop etildi**. ("Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishning o'zaro bog'liqligini nazariy asoslari" // Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy tizimlari va texnologiyalarini qo'llash masalalari. Respublika ilmiy-uslubiy konferensiyasi. – Toshkent, 2022 yil). Joriy yilning iyun oyida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ehtiyojlarini aniqlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxandaryo va Sirdaryo viloyatlarida **tajriba-sinov** (so'rovnoma, davra suhbat, seminar) ishlari o'tkazildi. Ushbu tajriba-sinov mavzusi "Xalq ta'limi xodimlarini amaldagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini tahlil qilish" deb nomlanib, maqsadi uzluksiz kasbiy rivojlantirish talablaridan kelib chiqib 36 soatlik malaka oshirish kurslarining maqsadlarga yo'naltirishni tartibga solinganlik darajasi va uni yanada takomillashtirish istiqbollari (imkoniyatlari)ni aniqlashdan iborat. O'tkazilgan so'rovnomada **1000 dan** ortiq o'qituvchilar ishtirok etdilar.

Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida o'tkazilgan so'rovnoma va seminar natijalari asosida **"Malaka oshirish jarayonlari tahlili va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi imkoniyatlari"** nomli maqola Buxoro 2022-yil 2-soni Pedagogik mahorat jurnalida chop etildi.

"Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasini rivojlantirish, Xalq ta'limi tizimi rahbar kadrlari va metodistlarning ehtiyojini o'rganish asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish ta'lim mazmunini takomillashtirish bo'yicha **o'tkazilgan so'rovnomada 400 nafar respondent** qatnashdi. O'tkazilgan so'rovnoma tahlillar natijalari asosida G.Otamurodov, (hammualiflikda) "Multilevel E-portfolio Model in the System of Advanced Training of Academic Staff in Uzbekistan" // 2022 IEEE European technology & engineering management summit, 9-11 March 2022 University of the Basque Country, Spain **ilmiy maqola** chop etildi.

Xalq ta'limi tizimi rahbar kadrlar va metodistlar uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari mazmunini takomillashtirish bo'yicha kontent materiallari "Maktab o'qituvchilari va direktorlari zaxirasini shakllantirish portali" loyihasida ishlab **chiqildi**.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha masofaviy malaka oshirish kurslari kontentlarini shakllantirish bo'yicha **muvaqqat tartib** ishlab chiqildi va institut rahbariyatiga tasdiqlash uchun takdim qilindi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha **10 ga** yaqin **amaliy takliflar** ishlab **chqildi**. Takliflar Direktor huzuridagi ishlab chiqarish

yig'ilishida muhokama qilindi. Takliflar asosida ishlab chiqilgan mexanizm Sirdaryo viloyati hududiy malaka oshirish markazida tajribadan o'tkazildi hamda barcha hududlarga joriy etildi. 2022-yil fevral oyida Sirdaryo viloyatida o'qituvchilar orasida o'tkazilgan tajriba sinov ishlari respublika miqyosida joriy etildi.

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” elektron platformasidagi **modullar bo'yicha tayyorlangan kurs kontentining** tayyorlanish sifati bo'yicha onlayn o'tkazilgan so'rovnomada **1320 nafar respondent** (kimyo, biologiya va boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari) qatnashdi. So'rovnoma natijalari tahlil etildi hamda natijalari bo'yicha G.Otamurodov, “Ta'lim sohasida pedagog kadrlarni malakasini oshirishda xorij tajribasining nazariy va ilmiy asoslari” // ISSN 2181-7324. O'zMU xabarлари. – Toshkent, 2022. №1/1. – B. 117-120 chop etildi.

Bundan tashqari, har bir fan yo'nalishlari bo'yicha mavjud **7 ta** kompetentsiyaning mazmunini boyitish maqsadida malaka oshirish kurslari yakunida so'rovnomalar joylashtirilgan bo'lib, ushbu so'rovnomalarning tahliliy natijalari o'rganilib borilmoqda. Kurslarning sifat reyting ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida tinglovchilar tomonidan kurs kontent materiallarini o'qituvchining dars o'tish maxoratini **5 ballik** tizimda elektron **baholash mezonlari** ishlab chiqildi.

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” maxsus elektron platformasi orqali **qayta tayyorlash kurslari** yuzasidan **ehtiyajlarni aniqlash** bo'yicha Ilmiy va pedagogik xizmatlar markazi bilan hamkorlikda **so'rovnoma tayyorlandi**. Hozirda so'rovnoma o'tkazish jarayoni va platforma orqali qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha ishlar davom etmoqda.

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” maxsus elektron platformasidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining tayyorgarlik holati va mazmuni bo'yicha hududiy malaka oshirish markazlari hamda oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan **30 nafar soha mutaxassislari** va **10 nafar** amaliyotchi o'qituvchilardan **tashqi taqrizlar** olingan. Bugungi kunda **33 ta fan yo'nalishi** bo'yicha uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari to'liq faollashtirilgan va bu haqida bo'lim tomonidan e'lon posterlari tayyorlangan hamda institutning rasmiy veb-sayt (<http://avloniy.uz>) va telegram ijtimoiy tarmoqlari (<https://t.me/avloniyuz>, https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar) orqali e'lonlar berilgan. Hozirgi vaqtga ushbu kurslarda **374 717 nafar** pedagoglar uzluksiz kasbiy malakalarini oshirib kelmoqda.

Shuningdek, fan o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarini elektron platforma orqali “Uzluksiz kasbiy ta'lim” maxsus elektron platformasidagi uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslarining tayyorgarlik holati va mazmuni bo'yicha **27 ta fan yo'nalishi** bo'yicha soha mutaxassislarining xulosalari, shuningdek, **4 nafar** amaliyotchi o'qituvchilardan tashqi **taqrizlar** olindi. Shu bilan birga, **14 ta fan yo'nalishlari** bo'yicha onlayn malaka oshirish kurslari faollashtirildi.

VI. O'RTA TA'LIM

Respublika, MDH va xorijda mazkur mavzu va muammolarni tadqiq qilgan olimlarning ishlari va xorijiy tajribani o'rganish bo'yicha **28 varoqdan** iborat **adabiyotlar sharhi** tayyorlandi.

M.Ergasheva tomonidan 2022-yil 6-7-aprel kunlari "Funksional savodxonlikni shakllantirishda kreativ fikrlashning ta'limdagi o'rni" mavzusidagi maqolasi bilan Sirdaryo VXTXQTMOHMda "Pedagoglar malakasini oshirish tizimiga innovatsion yondashuv: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanida **maqola** chop etildi.

M.Ergasheva "**TIMSS** xalqaro baholash dasturida tabiiy fanlar qamrov doirasi" mavzusidagi maqolasi A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot institutida 2022-yilning 11-12-mart kunlari **UNICEF**ning O'zbekistondagi vakolatxonasi homiyligida "**Xalqaro baholash dasturlari va ta'lim sifatini tadqiq etishning dolzarb muammolari**" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada **tezis** chop etildi.

M.Ergasheva "**Stesting**" elektron platformasi orqali **TIMSS** xalqaro tadqiqotida tabiiy savodxonlikni baholashning dastlabki natijalari" mavzusidagi maqolasi Samarqand VXTXQTMOHMda o'tkazilgan. "Ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasida 2022-yil aprel oyida chop etildi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarning kreativ fikrlashini baholashning xorijiy tajribasi o'rganildi va ma'lumotlar banki shakllantirildi. O'rganilgan ma'lumotlar va qiyosiy tahlil asosida **videorolik** tayyorlandi. (<https://t.me/avloniyuz/4149>).

RTM bilan hamkorlikda o'quvchilarning kreativ fikrlashini baholash mezonlari loyihasi ishlab chiqish maqsadida, "O'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarini baholashning amaldagi mexanizmlarini tahlil qilish" mavzusida loyiha ishlab chiqildi.

Ushbu loyihada - **PIRLS** xalqaro baholash dasturlariga oid **2 ta "Cho'pon tayog'i", "Tipratikan" topshiriqlari;** - **TIMSS** xalqaro baholash dasturlarining matematika fani bo'yicha **60 ta** topshiriqlar; - **PISA** xalqaro baholash dasturlarining matematik savodxonlik bo'yicha **2 ta "Bayramona sayohat", "Pilla qurti"** topshiriqlari; - **PISA** xalqaro baholash dasturlarining o'qish savodxonlik bo'yicha **2 ta "Notanish odam", "O'zbekistonning cho'llanishi"** topshiriqlari ishlab chiqildi.

STesting elektron platformasidan ish jarayonida foydalanish yuzasidan A.Radjiyev, F.Karimov, S.Azimov, M.Ergasheva, N.Tashtemirovalar hammuallifligida "**PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro baholash dasturlariga maktab o'quvchilarini tayyorlash mexanizmlari**" nomli metodik qo'llanma ishlab chiqildi. Mazkur metodik qo'llanma Ilmiy Kengshning 2022-yil 24-martdagi 2-sonli yig'ilishida tasdiqlandi.

Xalq ta'limi vazirligining 2021-yil 16-dekabrda 404-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida institutning 2021-yil 31-dekabrda 01-143-son buyrug'iga asosan 2022-yil 12-13 va 17-18-yanvar kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq

ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari hamda hududiy malaka oshirish markazlari hamda tayanch maktablar trenerlari uchun **“STesting** platformasi imkoniyatlari va unda ishlash tartibi” mavzusida respublika miqyosida seminar-trening o'tkazildi. Shuningdek, yanvar-fevral oyida respublikadagi **384 ta** tayanch maktab trener o'qituvchilari uchun qo'shimcha o'quvlar tashkil etildi. Respublika miqyosida platformadan ish jarayonida foydalanish bo'yicha jami **50 dan** ortiq o'quv treninglar o'tkazildi.

O'quvchilarni **PIRLS, PISA** va **TIMSS** xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash maqsadida stesting.uz platformasi orqali o'quvchilar bilimni baholash va natijalar tahlili bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi (*Ma'lumot: Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 16-dekabr kunidagi 404-son buyrug'i, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutining 2021-yil 31-dekabrda 01-143-sonli buyrug'i*). **Stesting platformasini respublika maktablarida joriy etish va OAV da yoritish** maqsadida quyidagi havolalarda e'lonlar yoritib borildi:

<http://www.uzdaily.uz/uz>

<https://www.youtube.com/watch?v=GeC-SzhV7lo>

<https://yuz.uz/news/xalqaro-baholash-tadqiqotlari--talim-sifatida-muhim-qadam>

<https://avloniy.uz/en/press-center/news/306>

Xalqaro va milliy baholash tizimini o'rganish hamda tanqidiy va qiyosiy tahlil qilish asosida **videorolik** tayyorlandi. (<https://stesting.uz/ru/guide>).

M.Ergasheva, Dr. Todd Drummond: 2022-yil 11-martda **“Международное исследование функциональной грамотности 15-летних учащихся: уроки, извлеченные из опыта Кыргызской республики”** mavzusidagi maqola A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollari belgilash ilmiy-tadqiqot instituti. «Xalqaro baholash dasturlari va ta'lim sifatini tadqiq etishning dolzarb muammolari» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamida e'lon qilindi.

M.Ergasheva tomonidan **“O'quvchilarning funksional savodxonligini “Stesting” platformasi orqali baholash va topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish”** nomli maqolasi “Xalqaro baholash dasturlari va ta'lim sifatini tadqiq etishning dolzarb muammolari» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plamida 2022-yil 11-mart kuni e'lon qilindi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzuridagi Milliy markaz bilan hamkorlik memorandumini doirasida tashkil etilgan ishchi guruhga bo'limning ilmiy xodimlari M.Ergasheva va N.Tashtemirova jalb qilindi. Xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirilgan tayanch maktablar uchun tabiiy ilmiy va matematik savodxonlik bo'yicha o'quv dasturi, **PISA** va **TIMSS** toshiriqlari va o'quvchilarning o'quv yutuqlari va kompetensiyalarini **baholash mezonlari** ishlab chiqildi.

Ta'lim tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan mamlakatlar tajribasi o'rganildi va tahlil qilindi. Tahliliy natijalar asosida **videorolik** tayyorlandi. (<https://t.me/avloniyuz/3968>).

2022-yil 26-may kuni **“TALIS xalqaro tadqiqotining mazmuni, maqsad va vazifalari”** mavzusidagi ilmiy seminar tashkil etildi. Ilmiy seminar dasturi taqdim etildi (<https://t.me/avloniyuz/4737>).

Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv faoliyat samaradorligini baholashning xalqaro va milliy indikatorlarini o'rganish va baholashning yangicha usullari bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida o'qituvchilarning ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyatini **TALIS-2018** xalqaro tadqiqotlar, izlanishlar natijalari va talablari asosida o'tkazilgan so'rovnoma-tadqiqot **hisobotining 2-qism** chop etildi. (<https://stesting.uz/>).

Xalq ta'limi tizimidagi tegishli rahbarlik lavozimlariga munosib xodimlarni joy-joyiga qo'yishning shaffof va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida xalq ta'limi sohasida olib borilayotgan ishlar intervyu va so'rovnomalarda orqali o'rganildi. Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri, Qarshi va Kitob tumanlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Buxoro viloyati bo'yicha o'rganish onlayn tarzda amalga oshirildi. Tadqiqotda **13 ta** xalq ta'limi tizimida inson resurslari boshqaruv bo'limlari rahbar va xodimlari, shuningdek, har bir tumandan **35 nafardan** iborat maktab direktorlari ishtirok etdi. Ular **12 ta indikator**dan iborat so'rovnomalarda qatnashib, umumta'lim maktablarga rahbar tayinlash va tanlash bo'yicha fikr-mulohazalar va takliflar bildirdilar.

Tadqiqot natijalari asosida maktab direktorlarini tayinlash va tanlashda amaliy ko'mak beruvchi **“Maktabda boshqaruv”** nomli uslubiy qo'llanma tayyorlandi va chop etildi;

Umumiy o'rta ta'lim maktabini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasining ayrim yo'nalishlari bo'yicha rahbarlik kompetensiyalarini aniqlash bo'yicha so'rovnoma **indikatorlari va o'lchash mezonlari** ishlab chiqildi;

Xalq ta'limi sohasida **rahbar lavozimlarga nomzodni tanlash texnologiyasining loyihasi** ishlab chiqildi;

2022-yil 21-aprel Minsk (Belorussiya) shahrida bo'lib o'tgan **V-Xalqaro ilmiy amaliy seminarda** M.Badalova *“Rezultaty issledovaniya provedennogo dlya izucheniya sistemy upravleniya obshchobrazovatelnyimi shkolami” (na primere Ferganskoy, Namangansko i Andijanskoy oblastey)* mavzusidagi maqola bilan qatnashdi. Xalq ta'limi vazirligi inson resurslarini boshqarish boshqarmasi hamkorligida “Xalq ta'limi” jurnalida maqola chop etildi (№ 3, 2022-yil 24-yanvar) va Umumta'lim maktablari direktorligiga nomzodlar faoliyatini baholash bo'yicha **“Anketa-tavsifnoma”** ishlab chiqildi.

VII. KASBGA YO'NALTIRISH

Variativ o'quv reja, dastur va o'quv metodik ta'minotlarni ishlab chiqish, **11 ta** variativ o'quv reja yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish yo'nalishida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotlar bazasi asosida kasbiy ehtiyojlarni o'rganish natijasida, respublikada **jami 51261 ta vakant** ish o'rinlari mavjud ekanligi aniqlanib, hududlar kesimida tahlil qilindi hamda **“O'zbekiston Respublikasidagi vakant ish o'rinlari to'g'risida ma'lumot”** nomli **katalog** tayyorlandi.

Bugungi kunda yangi paydo bo'lgan kasblar to'g'risida ma'lumotlar to'plash, kelasi **10 yillikda** talab yuqori bo'ladigan kasblar ro'yxati shakllantirildi va o'rganish natijasiga ko'ra, 2022-yil mart oyida “Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlari” ilmiy-amaliy konferensiyaning **8-sonida** N.Mamanazarovanning “Kelajak kasblari va o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish” nomli maqolasi chop etildi.

Shuningdek, 2022-yil 22-yanvarda otkazilgan “O'zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi bo'linmalarida ilmiy va innovatsion faoliyatni takomillashtirish” respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plamida N.Ziyodulloyevning “Raqamli texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati” (85-88-b) mavzusidagi tezisi nashr etildi.

2022-yil 14-fevral kuni «Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish» ilmiy-amaliy loyihasi doirasida “Mening kasbim-mening kelajagim” platformasini yaratish bo'yicha 01/09-163-son xati bilan ilmiy-amaliy loyiha hujjatlari **UNESCO** xalqaro tashkilotiga tanlov uchun taqdim etildi.

2022-yil 22-iyun kuni 01/09-790-son xati bilan Xitoy Xalq Respublikasining grant mablag'lari hisobidan moliyalashtirish maqsadida Tashqi ishlar vazirligiga “Mening kasbim-mening kelajagim” platformasini yaratish amaliy loyihasi taqdim etish uchun yuborildi.

Yangi paydo bo'lgan kasblar to'g'risida ma'lumotlar «Skolkovo» va «Microsoft va The Future Laboratory» bazalaridan **500 dan** ortiq kasblar o'rganildi, tahlil qilindi hamda yangi paydo bo'lgan va kelasi **10 yillikda** talab yuqori bo'ladigan istiqbolli kasblar ro'yxati tuzilib, maktab o'qituvchilari va o'quvchilari uchun “Istiqbolga ega bo'lgan haqiqiy kasblar” nomli **qo'llanma** tayyorlandi. Qo'llanma asosida “Istiqbolli kasblar” mavzusida **videorolik** tayyorlandi.

Tadqiqot natijalari impakt-faktorli xalqaro jurnalda N.Mamanazarovanning “Proforientatsiya v sredney obshchobrazovatelnoy shkole i vybor professii”– Pedagogical sciences and teaching methods a collection scientific works of the International scientific conference (15 January, 2022) Copenhagen: 2022. ISSUE 9. -250 p maqolasi chop etildi.

2022-yil 10-11-mart kunlari Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazida malaka oshirayotgan tinglovchilar ishtirokida **“Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida variativ ta'limning**

samaradorligini oshirish” mavzusida tajriba-sinov ishlari o‘tkazilib, tahliliy ma’lumot tayyorlandi.

2022-yil 1-28-aprel kunlari Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasiga tegishli maktab o‘quvchilari o‘rtasida **“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida variativ ta’limni sifatli joriy etish zarurati”** bo‘yicha **so‘rovnoma** o‘tkazildi. Variativ o‘quv reja yo‘nalishlari bo‘yicha variativ o‘quv rejaga takliflar ishlab chiqilib, XTVga taqdim etildi.

2022-yil 20-mayda Farg‘ona va Samarqand viloyatlari hududiy malaka oshirish markazlari bilan hamkorlikda **“Xalq ta’limi pedagog xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish: muammo va yechimlar”** mavzusida onlayn ilmiy-amaliy seminar tashkil etildi hamda seminar **videoroligi** tayyorlandi.

2022-yil avgust-sentabr oylarida pedagog kadrlarning kasbiy salohiyati darajasini baholash tizimi bo‘yicha respublika miqyosida onlayn **so‘rovnoma** o‘tkazildi va tahlil qilindi. So‘rovnoma natijalari asosida **«Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish: muammo va yechimlar»** nomli **katalog** tayyorlandi.

Institut jurnaliga **“Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish: muammo va yechimlar”** mavzusidagi maqola nashrga topshirildi.

2022-yil 17-iyunda Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Uzluksiz kasbiy ta’lim elektron platformasi orqali **“Ta’lim muassasada tarifikatsiyalarni me’yor asosida tuzish va xodimlarni rag‘batlantirish”** mavzusida **onlayn seminar** o‘tkazildi. N.Mamanazarovning **“Istiqbolga ega bo‘lgan haqiqiy kasblar”** – **“Maktab va hayot”** ilmiy-metodik jurnal, 2022 yil, №2, 26-27 betlar **maqolasi** va **Innovatsionnye podxody v professionalnoy deyatelnosti** – Sirdaryo viloyati XTXQTUMOHMda **“Pedagoglar malakasini oshirish tizimiga innovatsion yondashuv: xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. 7.04.2022 y. B. 173-175 **tezisi** chop etildi. O‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, maktab psixologi va sinf rahbarlarining o‘quvchilarni kasbga qiziqtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish yo‘nalishida o‘quvchilarning kasblarga yo‘naltirish va qobiliyatlarini baholash bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalarni (MBTI-Myers–Briggs Type Indicator) o‘rganish maqsadida xorijiy mamlakatlar (AQSH, Finlyandiya, Yaponiya, Singapur, Xitoy va boshqalar) tajribalari o‘rganildi va qiyosiy-tahlil qilindi hamda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish tizimidagi yutuqlari aks ettirilgan **video rolik** tayyorlanib institutning **telegram kanallariga** joylashtirildi.

Xorijiy mamlakatlar (AQSh, Finlandiya, Yaponiya, Singapur, Xitoy va boshqalar) tajribalarini o‘rganish va qiyosiy-tahlil qilish bo‘yicha M.Sh.Mansurov, H.X.Botirov. *Образование и наука в XX веке. Выпуск №24 (том 6). “Yaponiya va Xitoy umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish mexanizmi”*. St. 723-730. (mart);

M.Sh.Mansurov. “Umumta’lim maktab o’quvchilarni kasbga yo’naltirishda psixologning o’rni va ro’li”. «Tafakkur ziyosi». T-2022. №1.B21-26 **maqola** chop etildi, shuningdek, <https://youtu.be/NRsgIFBeIXY> videorolik tayyorlandi.

“Maktablarda o’quvchilarning iqtidorini aniqlash va ularni kasbga yo’naltirish mexanizmlarini ishlab chiqish” loyihasi tayyorlandi hamda 2022-yil 22-apreldagi 01/09-198-son xat bilan Xalq ta’lim vazirligiga Innavatsion rivojlanish vazirligiga tasdiqlash uchun kiritildi.

Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida tajriba-sinov ishlarini natijasiga ko’ra, H.H.Botirov, D.F.Yusupova. “**Current situation of legal competence of school principals and identified problems: on the example of Kashkadarya region**”. «**ASEAN Journal on Science & Technology for Development**». Vol 39. № 4, 2022. 500-513 maqola chop etildi va <https://youtu.be/NRsgIFBeIXY> videorolik tayyorlandi.

“Tajriba-sinov natijalari asosida “Uslubiy tavsiya”. A.Radjiev, F.Karimov, X.Botirov, M.Mansurov “O’quvchilarni kasblarga yo’naltirish va qobiliyatlari baholash bo’yicha ilg’or xorijiy tajribalarni (MBTI - Myers–Briggs Type Indicator) o’rganish bo’yicha so’rovnoma tahlili” – T.: O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim vazirligi, 2022. – 71 bet;

Umumta’lim maktablari o’quvchilarni kasbga yo’naltirish bo’yicha amaldagi tartib va rejalari o’rganish M.Mansurov. Umumta’lim maktab o’quvchilarini kasbga yo’naltirish. (Maktab psixologi va sinf rahbarlari uchun). O’quv qo’llanma. “Max Pristi” nashiryoti. T-2022. b.198.;

M.Sh.Mansurov. “Umumta’lim maktab o’quvchilarini kasbga yo’naltirish muammo va istiqbollari (Farg’ona viloyati so’rovnoma tahlillari asosida)”. Uz MU xabarlari. Vestnik NUUz. Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. 2022-yil, № 1/2. b.112-116 maqola chop etildi.

Umumta’lim maktablari uchun Respublika tashxis markazi bilan hamkorlikda kasbga yo’naltirish bo’yicha **23-sentabr** kuni soat **10:00** dan **15:00** gacha O’zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi binosida (Toshkent sh., Shayxontohur tumani, Navoiy ko’chasi, 11-uy), shuningdek, ZOOM onlayn platformasi orqali o’tkazildi.

Maktab psixologi va sinf rahbarlari uchun o’quvchilarni kasbga yo’naltirish ishlarini tashkil etish bo’yicha M.Mansurov. Maktab o’quvchilarini texnologiya fani mashg’ulotlarida tadbirkorlik faoliyatiga tayyorlash. **O’quv qo’llanma. T-2022. B.138.**

VIII. MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM

Ilg’or xorijiy tajribalarni o’rganish asosida maktabdan tashqari ta’limning samaradorligi va sifatini ta’minlash, bolalar qamrovini kengaytirish bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish yo’nalishi bo’yicha maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish tizimini tanqidiy tahlil qilish, mavjud muammoning obyektiv va subyektiv sabablarini aniqlash bandi ijrosini ta’minlash maqsadida 2022-yilning 1-5 mart kunlari Samarqand

va Qashqadaryo viloyatlarida olib borilgan xizmat safari davomida Qashqadaryo viloyatida **15 nafar** va Samarqand viloyatida **16 nafar** “**Barkamol avlod**” bolalar maktablari direktorlari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma natijasiga ko‘ra, tahliliy ma‘lumot vazirlikga taqdim etildi hamda “**Barkamol avlod**” bolalar maktablari muammolari va uning yechimi bo‘yicha takliflar asosida **video rolik** tayyorlandi.

Maktabdan tashqari ta‘limni tashkil etish bo‘yicha **Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Germaniya** tajribalari qiyosiy o‘rganildi, tuzilgan ma‘lumotnoma asosida ilmiy maqola 2022-yil 31-may Turkiya xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada “**Foreign experience in organizing extracurricular education**” (“Xorijiy tajribalar asosida maktabdan tashqari ta‘lim tizimini takomillashtirishning mohiyati”) mavzusida maqola M.Badalova, S.Qudratov, T. Xalilov tomonidan chop etildi.

2022-yilning 1-5 mart kunlari Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida olib borilgan xizmat safari davomida Qashqadaryo viloyatida **15 nafar** va Samarqand viloyatida **16 nafar Barkamol avlod** bolalar maktablari direktorlari bilan maktabdan tashqari ta‘limni tashkil etish, mavjud muammolarni o‘rganish bo‘yicha so‘rovnoma o‘tkazish maqsadida **2 turdagi 38 ta** aniqlashtiruvchi indikatoridan iborat so‘rovnoma, **93 nafar** sinf rahbarlari, **70 nafar** maktab o‘quvchilari o‘rtasida **2 turdagi 18 ta** aniqlashtiruvchi indikatoridan iborat so‘rovnoma o‘tkazildi. Mavjud muammolar tavsiflandi va obyektiv va subyektiv sabablari aniqlanib ko‘rsatildi va muammolar yechimi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Maktabdan tashqari ta‘lim tizimini **tahlil qilish natijasida 1) “Ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirishda maktabdan tashqari ta‘lim muassasalarining to‘garak faoliyatini takomillashtirish, jamoat va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik mexanizmini rivojlantirish mavzulari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot natijalari”** nomli tahliliy ma‘lumot 2022-yil 18-martdagi 01/09-327-sonli xat bilan XTVga yuborildi; **2) Maktabdan tashqari ta‘lim sifatiga qo‘yilgan talablarni o‘rganish natijalari bo‘yicha 6 ta** yo‘nalish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi va hisobot tayyorlandi; **3) Davlat talablarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi; **4) 2022-yil 9-mart “Jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali “Barkamol avlod” bolalar maktablari faoliyatini rivojlantirish”** mavzusida “Innovate achievements in science 2022”, “Chelyabinskiy Gosudarstvennyy institut kultury” tomonidan o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada M.Badalova tomonidan tezis, chop etildi. Part7; **5) 2022-yil 20-sentabrda “Maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari bilan mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlik masalalari”** mavzusida “O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar”jurnalning 11-sonida 2181-3302 M.Badalova, B.Haqberdiev tomonidan maqola nashr ettirildi.

“**Barkamol avlod**” bolalar maktablari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha “**Mohir qo‘llar**” platformasini yaratish maqsadida loyiha tayyorlanib, **UNISEF** xalqaro tashkilotga yuborildi.

Maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini oshirishda jamoat va boshqa tashkilotlar bilan kompleks yondashuvni ta'minlash mexanizmi loyihasini ishlab chiqish bandi ijrosi yuzasidan Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida **“Barkamol avlod”** bolalar maktablari direktorlari bilan o'tkazilgan so'rovnoma natijalari bo'yicha davlat talablarini takomillashtirish maqsadida **6 ta** yo'nalishda takliflar XTVga yuborildi.

2022-yilning fevral-mart oylarida Respublika miqyosida **“Barkamol avlod”** bolalar maktabi direktorlari o'rtasida **onlayn** so'rovnoma o'tkazildi. Ushbu so'rovnomada **466 nafar** respondent qatnashdi. So'rovnoma natijasiga ko'ra tahliliy ma'lumot vazirlikga kiritildi.

“Barkamol avlod” bollar maktablari muammolari va uning yechimi bo'yicha takliflar asosida video rolik tayyorlandi // <https://t.me/avloniy.uz>;

Shuningdek, **“Barkamol avlod”** bolalar maktablari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha **“Mohir qo'llar”** platformasini yaratish maqsadida **loyiha tayyorlanib, UNISEF** xalqaro tashkilotiga 2022-yil 25-yanvardagi 01/09-85-sonli xat yuborildi.

2022-yil 9-mart kuni “Jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali **“Barkamol avlod”** bolalar maktablari faoliyatini rivojlantirish” mavzusida “Innovate achievements in science 2022”, “Chelyabinskiy Gosudarstvennyy institut kultury” tomonidan o'tkazilgan xalqaro konferensiya M.Badalova tomonidan tezis chop etildi;

2022-yil 20-sentabr kuni “Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bilan mahalla fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlik masalalari” mavzusida “O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar” jurnalning 11-sonida 2181-3302 M.Badalova, B.Haqberdiev tomonidan maqola chop etildi.

2022-yilda Respublika miqyosida Farg'ona, Andijon, Namangan, Qashqadaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarining **“Barkamol avlod”** bolalar maktabi direktorlari, rahbar kadrlari, uslubchilari, guruh rahbarlari o'rtasida so'rovnoma, intervyu va o'zaro suhbatlar oflayn hamda onlayn shaklda olib borildi.

Viloyatlarda **95%** **“Barkamol avlod”** bolalar maktablari rahbariyati tadqiqot ishlarida qatnashdi. **Jami 466 nafar** respondent ishtirok etgan tadqiqot natijalari asosida to'liq muammolar o'rganilib, har bir muammoga tanqidiy tus bergan holda yechim va taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi va bu tahlil natijalari asosida A.Radjiyev, F.Karimov, M.Badalova, “Ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida tugarak faoliyatini takomillashtirish, jamoat va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik mexanizmini rivojlantirish” ilmiy-tahliliy hisobot-katolog, 2022yil mart;

“Barkamol avlod” bolalar maktabi muammo va yechimlari mavzusida **video rolik** tayyorlanib // <https://t.me/avloniy.uz> da e'lon qilindi.

Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish bo'yicha **Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Germaniya** tajribalari qiyosiy o'rganildi, tuzilgan ma'lumotnoma asosida

ilmiy maqola tayyorlandi va Buxoro viloyati maktabdan tashqari ta'lim tizimida o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida **21 varaq**dan iborat tahliliy ma'lumot tayyorlandi.

IX. QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH

2022-yil 20-may kuni Farg'ona va Samarqand viloyatlari hududiy malaka oshirish markazlari bilan hamkorlikda "Xalq ta'limi pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish: muammo va yechimlar" mavzusida onlayn ilmiy-amaliy seminar tashkil etildi hamda seminar video roligi tayyorlanib, institutning telegramdagi rasmiy kanaliga joylashtirildi.

2022-yil avgust oyida pedagog kadrlarning kasbiy salohiyati darajasini baholash tizimi bo'yicha respublika miqyosida onlayn so'rovnoma o'tkazildi va tahlil qilindi. So'rovnoma natijalari asosida «Pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish: muammo va yechimlar» nomli **katalog** tayyorlandi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari MOHM va umumta'lim maktablarida tashkil etilgan **seminar-treninglar** va **so'rovnomalarda 400 nafarga** yaqin xalq ta'limi xodimlari ishtirok etdi. O'tkazilgan so'rovnoma, davra suhbatlari va seminarlar tahlil natijalariga ko'ra tegishli takliflar ishlab chiqildi. O'tkazilgan tadbirlar doirasida **10 ta banddan** iborat bir qator amaliy takliflar ishlab chiqildi hamda "Xalq ta'limi tizimiga mediasavodxonlikni joriy etish jarayoni va istiqbollari" // Pedagoglar malakasini oshirish tizimiga innovatsion yondashuv: Xalqaro tajribalar va rivojlanish istiqbollari nomli konferensiyada Toshkent-2022., maqola chop etildi.

Institutning 2022-yil 24-oktyabrdagi 39-x/s-son buyrug'i asosida **14 ta** hududlardagi pedagogik markazlarida seminar treninglar tashkil etildi. Ushbu seminar treningda **412 nafar markaz professor-o'qituvchi** va **xodimlari 182 nafar** Xalq ta'limi boshqarmasi **metodischtlari** va **7 000 nafardan** ortiq kurs tinglovchilar **oflayn** hamda **85 000 nafardan** ortiq **umumta'lim maktab rahbarlari** va **pedagog xodimlari onlayn** tarzda ishtirok etishdi.

Ushbu vazifa ijrosi natijasida xalq ta'limi xodimlarining **shaxsiy hisobini yuritish mexanizmi** ishlab chiqildi. Har yili Xalq ta'limi tashkilotining har bir xodimi 2022-yil 6-oktabridan 15-oktabriga qadar, ehtiyojidan kelib chiqib, reestr orqali navbatdagi kalendar yilda malaka oshiradigan ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkiloti va ta'lim olish shaklini tanlashi va unga ko'ra reestrda xodim faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim tashkilotining keyingi kalendar yil uchun malaka oshirishga bo'lgan buyurtmasi shakllanishi to'g'risidagi xat xududlarga yuborildi. Natijada elektron platforma orqali ro'yxatdan o'tgan **200 000 nafardan** ortiq **pedagoglar** 2023-yil uchun reestr orqali malaka oshirishlarini tanlashlariga erishildi.

“Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasini rivojlantirish, Xalq ta’limi tizimi rahbar kadrlari va metodistlarning ehtiyojini o’rganish asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish ta’lim mazmunini takomillashtirish bo’yicha so’rovnoma o’tkazildi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha **10 ga** yaqin amaliy **takliflar** ishlab chiqildi. Takliflar rektor huzuridagi ishlab chiqarish yig’ilishida muhokama etildi. Takliflar asosida ishlab chiqilgan mexanizm Sirdaryo viloyati hududiy malaka oshirish markazida tajribadan o’tkazildi hamda barcha hududlarga joriy etildi. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasini funksional jihatdan takomillashtirish, tizimda qo’shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida Institut rektorining 2022-yil 8-avgustdagi 01/09-1034-sonli xati orqali **UNISEF** xalqaro bolalar jamg’armasiga murojat xati yuborildi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish, uni sifat jihatdan ko’tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori bilan nodavlat ta’lim tashkilotlari va oliy ta’lim muassasalarining malaka oshirish faoliyati bilan shug‘ullanishlariga ruxsat berildi. Ularning malaka oshirish faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun elektron ariza berish tizimi (Reestr) va ariza berish tartibi ishlab chiqildi. Ariza berish tartibi Xalq ta’lim vazirligining 2022-yil 20-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 18-son buyrug‘i bilan tasdiqlandi. Xususan,

2022-yil 26-avgustdan boshlab, Reestr orqali kelib tushgan arizalar tegishli tartibda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ko‘rib chiqildi va belgilangan talablarga javob beradigan **3 ta nodavlat ta’lim tashkilotlari**, “**Ziyo muallim pedagoglar rivojlanish markazi**”, “**Turon international school group**” va “**Tafakkur charxpalagi**” **nodavlat ta’lim tashkilotlari xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun imkoniyat** yaratildi.

Olib borilgan ishlar natijasiga ko‘ra, Uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi imkoniyatlari bo’yicha Uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo’yicha 2022-yil 28-iyul kuni G‘.Otamurodov, E.Alkarov, B.Xurramov “Analysis of professional development processes and opportunities of the system of continuous professional development” // International Conference on Advance Education (ICAE-22) 28th July 2022, Istanbul, Turkey. ISSN: 1392-5369. Specialusis ugdymas/special education 2022 №2 (43). Pp. 122 **maqola** chop etildi.

Institutda pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun jami **9 nafar** tayanch doktorant (*6 nafari 1-bosqich, 1 nafari 2-bosqich va 1 nafari 3-bosqich*), **4 nafar** maqsadli doktorant, **1 nafar** stajor-tadqiqochi hamda **20 nafar** mustaqil **PhD izlanuvchi**, **5 nafar** mustaqil **DSc izlanuvchilar**, **jami 39 nafar** tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanuvchilik faoliyati amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qarori bilan tasdiqlangan “**Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim to‘g‘risida nizom**”ga asosan mustaqil izlanuvchilikka qabul qilishni tashkil etish va o‘tkazish maqsadida Institutning 2022-yil 1-martida 01-21-son buyrug‘iga asosan 2-chorak, Institutning 2022-yil 10-may 01-44-son buyrug‘iga asosan 3-chorak uchun mustaqil izlanuvchilikka suhbat bo‘lib o‘tdi.

2-chorakda phd.mininnovation.uz platformasiga mustaqil tadqiqotchilikka **9 nafar** talabgorlardan **7 nafar**ining hujjatlari qabul qilinib, **2 nafar** talabgorning mutaxassisligi to‘g‘ri kelmaganligi sababli hujjatlari qaytarildi. (**5 nafar PhD, 2 nafar DSc**). Mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar bilan 14-mart kuni mutaxassislik fanidan suhbatdan o‘tgan **4 nafar PhD, 1 nafar DSc** mustaqil izlanuvchilikka;

3-chorakda mustaqil izlanuvchilikka talabgorlar bilan joriy yilning 6-iyun kuni mutaxassislik fani 13.00.07-“Ta’limda menejment” va 13.00.02-“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” mutaxassisligi bo‘icha tanlovda jami **7 nafar** talabgorlardan (**3 nafari** 13.00.07-“Ta’limda menejment” ixtisosligi bo‘yicha, **4 nafari** 13.00.02-“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘icha) ishtirok etib, **6 nafar** talabgorlar mustaqil izlanuvchilikka qabul qilindi. Izlanuvchilarning dissertatsiya mavzulari va ilmiy rahbari Institut Ilmiy kengashiga tasdiqlatish uchun kiritildi.

2022-yil 25-noyabrda “Institut mustaqil izlanuvchilarining ilmiy rahbarlari va konsultantlariga haq to‘lashni tashkil etish to‘g‘risida” institut rektorining **01-120-son buyrug‘i** qabul qilindi. Unga ko‘ra 2023-yil yanvardan boshlab mustaqil izlanuvchilarning ham ilmiy rahbarlari va konsultantlariga **50 soat** hajmidan kelib chiqib ish haqi to‘lanadi. Barcha doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya mavzulari **OAK byulletenida** chop etilishi uchun tizimga yuklandi.

O‘zbekiston Respublikasi OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo‘yicha ekspert kengashi tavsiyasiga (27.09.2022 f4.,Nel1) asosan, 13.00.07-“Ta’limda menejment” ixtisosligi va 13.00.02-“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” (sohalar) bo‘yicha **malakaviy imtihonlarni qabul qilish komissiyasi tarkibiga o‘zgartirish kiritilgani sababli qayta tasdiqlandi.**

Doktorantura va magistratura bo‘limi va kafedra bilan hamkorlikda 13.00.02 – “Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi” ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon dasturi va doktoranturaga kirish imtihoni dasturi, imtihon biletleri tayyorlandi va Institut 1-son kengashida tasdiqlandi.

Institutda magistratura faoliyatini tashkil etish bo‘yicha 2021/2022-o‘quv yilida “Ta’lim menejmenti” mutaxassisligi bo‘yicha **20 nafar** va “Kattalar ta’limi” mutaxassisligi bo‘yicha **10 nafar** magistr o‘z faoliyatini olib bordi. **O‘quv yilining 2-semestri** davomida “Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi **HEMIS**” elektron platformasida o‘quv rejasidagi fanlar semestriga, talabalarga biriktirildi. Fan

o'qituvchilariga darslar biriktirildi va dars jadvali hamda har bir fan bo'yicha o'quv moduli sillabuslari yaratildi.

“Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi **HEMIS**” elektron platformasiga “Menejment (Ta'lim menejmenti)” va “Kattalar ta'limi” mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi (kvalifikatsiyasi) kiritildi. Magistratura talabalarining o'quv jarayoni **online** tarzda 2 para Ta'lim menejmenti va 2 para Kattalar ta'limida dars jadvali asosida tashkil etildi.

Magistrlarning ITI va IPI ish rejalari elektron formatda yig'ib olindi va o'rganib chiqildi. Ish reja bajarilishi yuzasidan asoslantiruvchi hisobot tayyorlash ko'rsatmasi berildi. Magistratura talabalarining o'quv jarayonini **offline** tarzda o'tilishi tashkil qilindi va 7-fevraldan offline o'qish jarayoni boshlanishi munosabati bilan magistrlar uchun o'quv xonalari tayyorlandi. Magistratura mutaxassisliklarining dars jadvali ishlab chiqildi va direktor o'rinbosari A.Baxramov tomonidan tasdiqlandi, bundan tashqari talabalarining o'quv jarayonini tashkil etish maqsadida professor-o'qituvchilar jalb etildi. Magistratura talabalarining o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha o'quv jurnali tayyorlandi va o'quv jurnalini yuritilishi hamda kunlik davomati nazorat qilindi.

Institutning “Ta'lim menejmenti” magistrantlarining o'quv rejasidagi “Ta'lim tizimida strategik boshqaruv va rejalashtirish” fani dasturidagi talabalarni ilg'or tajribali xorijiy oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan tanishtirish maqsadida Toshkent shahridagi Puchon universitetiga 2022-yil 14-fevralda 01/09-162-son xat bilan murojaat qilindi va Puchon universitetiga ko'chma mashg'ulotga olib borildi. Ta'lim menejmenti talabarlari universitetning o'quv jarayonlari bilan bevosita tanishishdi. Puchon universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektori talabalarni universitetda yaratilgan shart-sharoitlar, jumladan, Axborot-resurs markazi bilan tanishtirdi.

Dars mashg'ulotlariga sababsiz qatnashmayotgan Ta'lim menejmenti yo'nalishi talabalaridan **5 nafariga**, Kattalar ta'limi yo'nalishi talabalaridan **1 nafariga** 2022-yil 15-fevralda yozma ravishda “**Ogohlantirish**” berildi

2023-yil uchun qabulni tashkil qilish. “Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risida”gi Nizomning 13-bandiga muvofiq, Institutning ilmiy salohiyatini ko'tarish maqsadida 2023-yil uchun qabul kvotasi hisobidan tayanch doktoranturaga **8 ta o'rin**, maqsadli doktoranturaga **2 ta o'rin**, stajor-tadqiqotchilikka **3 ta o'rin** ajratishda amaliy o'rdam berish uchun XTVga 01/09-567-son xat bilan murojat qilindi. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi Hay'atining 2022-yil 20-sentabrdagi **35-son bayoni** bilan tasdiqlangan “2023-yilda stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura va maqsadli doktoranturada davlat byudjeti mablag'lari hisobiga ta'lim oluvchilarning vazirliklar, idoralar, oliy ta'lim muassasa va ilmiy tashkilotlar bo'yicha taqsimlanishi” qabul kvotalariga muvofiq institutga 2023-yil uchun quyidagicha kvota ajratildi:

t/r	Mutaxassislik yo‘nalishi	Ajratilgan kvotalarni doktorantura turlariga bo‘linishi			
		PhD	DSc	Stajor-tadqiqotchi	Maqsadli doktorantura
1	13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi	4			1
2	13.00.07-Ta’limda menejment	4	1	2	1

Ushbu qabul kvotalariga muvofiq, **2022-yil 20-sentabrda institut rektorining** “Stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura, maqsadli doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka qabulni tashkil etish to‘g‘risida”gi **01-98-son buyrug‘i** qabul qilindi. Unga ko‘ra, qabul to‘g‘risidagi e‘lon matni institut rasmiy kanallarida va “Ma‘rifat” gazetasida e‘lon qilindi.

Institut doktoranturasiga hujjat topshirganlar soni

t/r	Mutaxassislik yo‘nalishi	Topshirilgan hujjatlar soni					
		PhD	DSc	Stajor-tadqiqotchi	Maqsadli doktorantura	Mustaqil izlanuvchi	
						PhD	DSc
1	13.00.02-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi	18			2	3	1
2	13.00.07-Ta’limda menejment	10	1	6	1	3	

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 2-martdagi 36-son qarori bilan tasdiqlangan “Magistratura to‘g‘risida”gi Nizomi, Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizom (2009-yil 5-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 1963) hamda magistratura mutaxassisliklari o‘quv jarayoni jadvaliga muvofiq “2021/2022 – o‘quv yili uchun magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 2-iyunda 01-55-son buyruq loyihasi tayyorlandi hamda Institut direktori tomonidan tasdiqlandi.

Buyruqda magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilarining magistrlik dissertatsiya himoyasini o‘tkazadigan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raislari va a‘zolarining tarkibi 70411201- Menejment (Ta‘lim menejmenti) mutaxassisligi bo‘yicha va 70110105- Kattalar ta‘limi mutaxassisligi bo‘yicha ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi haqidagi 209-buyruq 13-bandini ijrosini ta‘minlash yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va kelishish uchun Toshkent davlat pedagogika universitetiga yuborildi.

2022-yil 8-iyunda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tomonidan magistrlik dissertatsiyasi himoyasi o‘tkazildi. **Himoya natijalariga ko‘ra 26 nafar** magistratura mutaxassisliklari talabalari muvaffaqiyatli himoya qildi. **2022-yil 8-iyunda DAK qarori** e‘lon qilindi.

2022/2023-o‘quv yili uchun magistratura mutaxassisliklari **“Talim menejmenti”** uchun **10 ta**, **“Kattalar ta‘limi”** uchun **10 ta** kvota ajratildi.

Xalq ta‘lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 235-son buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida 2022-yilning 22-iyul kunidagi Institut rektorining 01-70-son buyrug‘i qabul qilindi. Mazkur buyruq bilan “Institut qabul komissiyasi a‘zolarining vazifalari”, “Institutda 2022/2023-o‘quv yilida magistratura mutaxassisliklariga qabul jarayonlarini yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi”, magistraturaga kiruvchilarni qiziqtirgan savollarga tezkor javob berilishini ta‘minlash uchun tashkil qilingan “Axborot-maslahat markazi” (Call center) tarkibi tasdiqlandi.

Institut rektorining **“2022/2023-o‘quv yilida Institut magistraturasiga talabalar qabulini tashkil etish to‘g‘risida”**gi 2022-yil 28-iyunda 62-son buyrug‘i qabul qilindi va **qabul jarayonlarini amalga** oshirishda hujjatlar magistr.edu.uz platformasi orqali taqdim etilgan, diplom ilovasidagi baholari tasdiqlangan hamda arizasi qabul qilingan talabgorlar ro‘yxati shakllantirildi.

Jami kelib tushgan **arizalar** soni **20 tani**, shu jumladan “Ta‘limda menejment” yo‘nalishida **10 ta** hamda “Kattalar ta‘limi” yo‘nalishida **10 tani** tashkil etdi.

Shulardan, “Kattalar ta‘limi” mutaxassisligiga **10 nafar** abituriyentlarning hujjatlari talabalikka tavsiya etilib, “Ta‘limda menejment” yo‘nalishida barcha arizalar turdosh bakalavriat yo‘nalishlariga to‘g‘ri kelmaganligi sababli rad etildi.

Qabul jarayoni davomida “Kattalar ta‘limi” yo‘nalishida **6 nafar** abituriyentlar oilaviy sharoitlari to‘g‘ri kelmagani sababli o‘qish istagidan qaytishganini ma‘lum qilishgan. **4 nafar** abituriyent o‘qish istagini bildirdi.

2022-yil 31-avgustdagi “2022/2023 o‘quv yili uchun “Kattalar ta‘limi” yo‘nalishi bo‘yicha magistraturada o‘quv jarayonlarini boshlash hamda joriy o‘quv yiliga tavsiya qilingan talabalarning darslarga qatnashishga ruxsat berish to‘g‘risida”gi Institut rektorining **01-89-son buyrug‘i** qabul qilindi.

2022/2023-o‘quv yili Institut magistraturasi uchun malaka talablari, o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari ishlab chiqildi. **70411201 - Menejment (Ta‘lim menejmenti) mutaxassisligi bo‘yicha va 70110105 - Kattalar ta‘limi mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari Oliy ta‘limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi** tomonidan tasdiqlandi. **O‘quv rejalari, o‘quv dasturlari ishlab chiqildi** va institut kafedrasini tomonidan tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta‘limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi **PQ-4963-son qaroriga** ko‘ra institutda **to‘lov-kontrakt** asosida “Ta‘lim menejmenti” va “Kattalar ta‘limi” **bir yillik** magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish vazifasi belgilangan bo‘lib, real harajatlardan kelib chiqqan holda hisoblangan bir talabani o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlar miqdoriga asosan magistraturada o‘qish uchun to‘lov-kontrakt miqdori **17 216 982 so‘mni** tashkil qilmoqda.

Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlat komissiyasiga 2022/2023-o‘quv yilida qabul qilinadigan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt miqdori ham Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berilishiga aniqlik kiritish uchun xat tayyorlandi va kelishish uchun XTVga taqdim etildi.

Institut tomonidan joriy yilning **22-septabr** kuni o‘qishni davom ettirish istagini bildirgan **4 nafar** talabani o‘quv mashg‘ulotlarini 2022/2023 o‘quv yilining dekabr-yanvar oylarida bo‘lib o‘tadigan qabul natijalari bo‘yicha talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar bilan o‘quv jarayonlarini qo‘shib olib borish bo‘yicha **Xalq ta‘lim vazirligiga 01/09-1260-son taklif xati** bilan murojat qilindi.

Vazirlar Mahkamasining “Magistratura to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 2015-yil 2-martdagi 36-son qarorining yangi tahrirda qabul qilinishi munosabati bilan “Oliy ta‘lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonun loyihasi uchun mazkur qarorda Institutimizni nazarda tutish to‘g‘risida takliflar bildirildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022-yil 7-martdagi “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni**, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 15-avgustdagi “Davlat oliy ta‘lim muassasalari magistratura bosqichida ta‘lim olayotgan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lab berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 447-sonli qarori asosida davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlat komissiyasiga 2022/2023-o‘quv yilida qabul qilinadigan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt miqdori hamda davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berilishiga aniqlik kiritish hamda “Kattalar ta‘limi” magistratura mutaxassisligi uchun joriy yilning avgust oyidagi qabul

natijalari bo'yicha **10 nafar** abituriyent qabul qilingan bo'lib, shu **10 ta** o'rindan **6 tasi** bo'sh ekanligini e'tiborga olib, dekabr-yanvar oylarida o'tkaziladigan qabul jarayonlarida mazkur o'rinlarga talabgorlardan **magistr.edu.uz** elektron tizimi orqali hujjatlar qabul qilinishiga amaliy yordam berish bo'yicha xat tayyorlandi va kelishish uchun XTVga taqdim etildi.

XIV. TAJRIBA-SINOV ISHLARI

Bo'lim mudiri M.Badalova tomonidan **Samarqand** va **Qashqadaryo** viloyatlarida **10 nafar** viloyat va tuman xalq ta'limi bo'limi kadrlari bilan ishlash boshqarmasi xodimlari va **260 nafar** maktab direktorlari, **31 nafar** "**Barkamol avlod**" bolalar maktablari direktorlari, **93 nafar** sinf rahbarlari, **70 nafar** maktab o'quvchilari, **13 nafar** ota-onalar o'rtasida **8 turdagi** va **188 ta** aniqlashtiruvchi indikatoridan iborat so'rovnomalar o'tkazildi. O'rganish natijasida ilmiy tadqiqot bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar vazirlikga kiritildi, shuningdek, maktab direktorlarini tayinlash va tanlash bo'yicha **video rolik** tayyorlandi.

2022-yil 11-aprel kuni **Sirdaryo viloyati** xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazida **jami 75 nafar** amaliyotchi psixolog va fan o'qituvchilari o'rtasida sotsiologik so'rovnomalar o'tkazildi.

2022-yil 12-14-aprel kunlari **Sirdaryo viloyati** texnologiya o'qituvchilari va maktab o'quvchilari o'rtasida sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi.

2022-yil 15-aprel kuni **Qashqadaryo viloyati** xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazida **125 nafar** fan o'qituvchilari o'rtasida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi.

2022-16-20-aprel kunlari **Qashqadaryo viloyati** amaliyotchi psixolog va maktab o'quvchilari o'rtasida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha sotsiologik tadqiqot o'tkazildi.

Xalq ta'limi tizimidagi tegishli rahbarlik lavozimlariga munosib xodimlarning joy-joyiga qo'yishning shaffof va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro viloyatlarida xalq ta'limi sohasida olib borilayotgan ishlar intervyu va so'rovnomalar orqali o'rganildi. Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri, Qarshi va Kitob tumanlarida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqotda **13 ta** xalq ta'limi tizimida inson resurslari boshqarish bo'limlari rahbar va xodimlari, shuningdek, har bir tumandan **35 nafardan** iborat maktab direktorlari ishtirok etdi. Ular **12 ta** indikatoridan iborat so'rovnomalarda umumta'lim maktablarida rahbar tayinlash va tanlash bo'yicha fikr-mulohazalar va takliflar bildirdi. **2022-yil dekabr** oyida Buxoro viloyatida olib borilgan tajriba-sinov ishlari doirasida Buxoro viloyati xalq ta'limi boshqarmasi Kadrlar bo'limi mutaxassislari bilan xalq ta'limida munosib rahbar

kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish bo'yicha mavjud holat va muammolar hamda ularning yechimlari yuzasidan intervyu-suhbat tashkil etildi. Shuningdek, tajriba-sinov ishlari davomida umumta'lim maktablaridagi umumiy holatni, pedagog kadrlarning ilmiy salohiyati va maktab direktorligiga nomzod kadrlarning dasturlarini tuman kengashlarida tasdiqlash masalalariga oid **74 ta** indikatoridan iborat so'rovnoma o'tkazilib, ushbu so'rovnomada Buxoro shahar va Buxoro tumanidagi **81 nafar** umumta'lim maktabi direktorlari ishtirok etishdi. **Tadqiqot natijalari asosida 1)** maktab direktorlarini tanlash va tayinlashda amaliy ko'mak beruvchi **“Maktabda boshqaruv”** nomli uslubiy qo'llanma tayyorlandi; **2)** Umumta'lim maktab direktorlarini lavozimga tanlash va tayinlash bo'yicha mexanizm loyihasi ishlab chiqildi; **3)** Umumiy o'rta ta'lim maktabini ilmiy metodik boshqarish texnologiyasining ayrim yo'nalishlari bo'yicha rahbarlik kompetensiyalarini aniqlash bo'yicha so'rovnoma indikatorlari va o'lchash mezonlari ishlab chiqildi; **4)** Xalq ta'limi sohasida rahbar lavozimlarga nomzodni tanlash texnologiyasining loyihasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari **Uslubiy ko'rsatma holatida** nashr etishga tayyor holatga keltirildi. Ilmiy-tadqiqot natijalari xalqaro jurnallarga (**Scopus bazasiga kirgan**) topshirildi va video rolik ma'lumotlari tayyorlanish jarayonida.

Sirdaryo va Qashqadaryo viloyatlarida xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarning kasblarga yo'naltirish va qobiliyatlarini baholashni amaliyotda qo'llash tajriba-sinov ishlari natijasida **“Uslubiy tavsiya”**. A.Radjiyev, F.Karimov, X.Botirov, M.Mansurov **“O'quvchilarni kasblarga yo'naltirish va qobiliyatlari baholash bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni (MBTI - Myers-Briggs Type Indicator) o'rganish bo'yicha so'rovnoma tahlili”** – T.: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi, 2022. – 71 bet;

Shuningdek, A.Radjiyev, F.Karimov, H.Botirov, M.Mansurov, M.Vohidova. **“Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari mazmunini va o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni takomillashtirish zarurati”** mavzulari bo'yicha ilmiy-tadqiqot natijalari yuzasidan tahliliy hisobot. **“Max Pristi”** nashriyoti. T-2022. b.77 tayyorlandi.

2022-yil 21-mayda A.Avloniy milliy-tadqiqot institutining <https://t.me/avloniyuz> va https://t.me/raqamli_pedagogik_xizmatlar kanallarida **“Bitiruvchilarning rejalari aniq(mi)?”** nomli so'rovnoma tashkil qilindi.

So'rovnoma tahlil ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Xalq ta'limi vazirligi va A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutining rasmiy kanallarida hamda www.kun.uz, www.daryo.uz, www.uza.uz saytlarida keng yoritildi.

Institutning 2022-yil 11-fevraldagi **01/09-156-sonli buyrug'iga** asosan **“Ta'lim sifati monitoringi”** darsi moduli doirasida Ta'lim Menejmenti yo'nalishi magistratura talabalari **Xalqaro baholash dasturi (PIRLS)** bo'yicha Yunusobod tumani 302-maktabida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Magistratura talabalarining **ITI, IPI, ish rejasi** bajarilishi bo'yicha bo'lim tomonidan baholash mezonlari dasturi ishlab

chiqildi hamda monitoring o'tkazildi. Baholash natijalari tegishli tartibda rasmiylashtirildi.

UNESSOning O'zbekistondagi vakolatxonasi, Xalq ta'limi vazirligining A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti hamda Prezident ta'lim muassasalari agentligi (PIIMA) tomonidan hamkorlikda amalga oshirilayotgan **“O'zbekistonda o'qituvchilarning kasbiy salohiyatlarini oshirish bo'yicha yondashuvlarni moslashtirish va ommalashtirish”** loyihasi doirasida **2022-yil 30-may-24-iyun** kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahar maktab o'qituvchilarning, ayniqsa, turli guruhga mansub (toifasi bo'yicha, maktabning joylashuv o'niga ko'ra, maktablarda ta'lim tiliga ko'ra, erkak-ayol o'qituvchilar soniga, tajribasiga ko'ra) o'qituvchilarning va hududiy malaka oshirish markazida tashkil etilgan haftalik kurs tinglovchilarining kasbiy ehtiyojlarini o'rganish, kelgusida uzluksiz kasbiy malaka oshirish ta'limida kasbiy kompetensiyangizni rivojlantirish o'quv modullari mazmunini hamda yangi uzluksiz kasbiy ta'lim modelida kasbiy malakalarini oshirish bo'yicha tajriba va taasurotlarini o'rganish, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy malaka oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash maqsadida tadqiqot (intervyu, fokus guruhlarda ishlash, so'rovnomalar)lar olib borildi.

Ushbu tadqiqotning intervyu shaklda **30 nafar maktab direktori** va **24 nafar fan metodistlari**, fokus guruhlarda **200 nafarga** yaqin **maktab o'qituvchilari**, so'rovnomada hududiy malaka oshirish markazidagi **2 200 nafardan** ortiq kurs tinglovchilari hamda **1 500 nafardan** ortiq **maktab o'qituvchilari** ishtirok etishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiining 2022-yil 2-noyabrdagi **“Zamonaviy maktab darsliklarini tajriba-sinovdan o'tkazish hamda maktab ta'limi sifatini oshirish to'g'risida”gi 08-2810-son** xatiga asosan A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan 2022-yilning **4-9-noyabr** kunlari **Finlyandiya ta'lim tajribalarini aprobatsiyadan o'tkazish** uchun tanlangan maktab o'qituvchilari uchun Toshkent shahar Olmazor tumanida joylashgan **191-son umumta'lim maktabida 36 soatlik** dastur asosida malaka oshirish kurslari tashkil qilindi.

Malaka oshirish kurslarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarining yangi darsliklar **tajriba-sinovida** ishtirok etish istagida **139 nafar** boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qidilar, shuningdek, hududlardagi Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarining **28 nafar** hamda **12 nafar** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ta'lim professor-o'qituvchilari **trenerlar** sifatida tayyorlandilar.

Mazkur malaka oshirish kurslaridagi dars mashg'ulotlarini **10 nafar** malakali trenerlar olib bordilar va kursda ishtirok etgan **137 nafar** boshlang'ich sinf o'qituvchilariga **maxsus sertifikat** taqdim etildi. Mazkur sertifikat muqobil malaka

oshirish shakli (**18 kredit**) sifatida **2023-yil** uchun malaka oshirganlik huquqini berishi qayd etildi.

Shuningdek, malaka oshirish kurslari davom ettirilib, Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 1-dekabrda "Finlandiya tajribasi asosida yaratilgan zamonaviy maktab darsliklarini o'qitishning metodikalarini o'rgatish to'g'risida"gi 368-sonli buyrug'iga asosan **12-15-dekabr** kunlari tajriba-sinov jarayonlariga jalb etilgan maktab rahbarlari va amaliy fan o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslaridagi dars mashg'ulotlarini malakali trenerlar olib bordilar va kursda ishtirok etgan **78 nafar** tajriba-sinov jarayonlariga jalb etilgan maktab rahbarlari va amaliy fan o'qituvchilariga **maxsus sertifikat** taqdim etildi.

XV. NASHR ISHLARI

2022-yilda institut **tayanch doktorantlari stajor-tadqiqotchilari va mustaqil izlanuvchilarining 33 ta** maqolasi OAK tavsiya etgan ilmiy va **9 ta** xalqaro xorijiy jurnallarda, OAK tasarrufiga kirmagan jurnallarda **13 ta**, shuningdek, **42 ta** tezesi respublika va **45 ta** tezesi xalqaro ilmiy anjumanlarda, **7 ta** tezesi xorijda tashkil etilgan konferensiyada, **25 ta** ilmiy maqola o'quv qo'llanma **1 ta**, lug'at-ma'lumotnoma **1 ta**, hammualliflikda darsliklar **2 ta** chop etildi.

Institutda faoliyati yo'lga qo'yilgan **ilmiy-tadqiqot bo'limlari xodimlari** tomonidan OAK tavsiya etgan **17 ta** Scopus jurnalida, **22 ta** xalqaro jurnallarda, **24 ta** OAK e'tirof etgan jurnallarida, **24 ta** respublika jurnallarida, **32 ta** xalqaro, shuningdek, **40 ta** respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar, **1 ta** uslubiy tavsiya, **3 ta** tahliliy hisobot, **3 ta** o'quv qo'llanma, **5 ta** mavzuga oid video rolik hamda **4 ta** respublika gazetasida maqolalar chop etildi.

XVI. XALQARO VA RESPUBLIKA MIQYOSIDA O'TKAZILADIGAN KONFERENSIYALAR

2022-yil 11-12-mart kunlari Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti va Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi hamkorligida "Xalqaro baholash va ta'lim sifatini tadqiq etishning dolzarb muammolari" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy onlayn **konferensiya** o'tkazildi.

1-kun: Xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlariga tayyorgarlik natijalari sarhisobi

2-kun: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha mahalliy ekspertlar tadqiqotlari natijalari

Ilmiy-amaliy konferensiyaning ishi **5 ta** sho'ba yo'nalishi bo'yicha tashkil qilindi.

Konferensiyada xorijiy ta'lim ekspertlari, institutning xalqaro hamkorlari, Respublikadagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ta'lim muassasalari xodimlari, ilmiy-uslubiy muassasalar mutaxassislari, doktorant va mustaqil izlanuvchilar anjuman mavzusi

doirasidagi ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar. Institutda o'tkazilishi rejalashtirilgan **“Xalqaro baholash va ta'lim sifatini tadqiq etishning dolzarb muammolari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga **magistrlar** tomonidan **8 ta** maqola berildi. Konferensiyaga umumiy **997 ta** maqola va tezislar qabul qilindi, shundan **197 tasi** tahrir qilinib, **2 ta** qismda nashr etildi.

2022-yil 20-iyun kuni A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan **“Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va variativ ta'limni samaradorligini oshirish”** mavzusida respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya tashkil etildi. Mazkur konferensiya respublika umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va variativ ta'lim samaradorligini oshirishga qaratildi. Konferensiya materiallari elektron to'plam shaklda tayyorlandi. Konferensiyaga **300** dan ortiq professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, doktorant va ilmiy izlanuvchilar, magistr^{lar} maqola va tezislari bilan qatnashdilar.

2022-yil 15-noyabrda A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va Rossiya ta'lim akademiyasining Ta'limni rivojlantirish strategiyalari instituti bilan hamkorlikda **“Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish strategiyasi sohasidagi fundamental va amaliy tadqiqotlar”** mavzusida onlayn xalqaro **konferensiya** tashkil etildi.

Konferensiyada umumiy o'rta ta'lim tizimida tajriba almashish va pedagogik qiyosiy tadqiqotlarni rivojlantirish imkoniyatlari muhokama qilindi. Konferensiyada qatnashgan jami **150 nafar** tinglovchilar tomonidan konferensiya to'plamiga **200** dan ortiq tezislar kelib tushdi va **jami 40 ta** taqdimot amalga oshirildi.

2022-yil 21-noyabr kuni UNICEF tashabbusi bilan Xalq ta'limi vazirligi, A.Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti va **Ta'lim bo'yicha global hamkorlik fondi (Global Partnership in Education, GPE)** hamkorligida uchrashuv tashkil **etildi**.

Mazkur ta'lim guruxiga ta'lim tizimidagi barcha vazirlik, idora va tashkilotlar a'zo hisoblanadi. Ta'lim guruhi uchrashuvida **Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Britaniya Kengashi (British Council), Amerika Kengashlari (American Councils), UNESCO, UNICEF, JICA, KOICA, USAID** kabi xalqaro tashkilotlarning O'zbekistondagi vakolatxonalari vakillari ishtirok **etdi**.

Ta'lim bo'yicha global hamkorlik fondi (GPE) tomonidan O'zbekiston uchun ajratilishi mumkin bo'lgan **“System Capacity Grant” va «Multiplier»** grant dasturlari jalb etish bo'yicha kelishuvga erishildi.

2022-yil 23-24-noyabr kunlari Umumiy ta'lim muammolari bo'yicha **“Zamonaviy maktabda o'qitish metodikasi: muammolar va innovatsion yechimlar”** mavzusida Rossiya-O'zbekiston ta'lim forumi tashkil qilindi. Forum Rossiya-O'zbekiston hamkorlikda **“ZO'R” (KLASS)** qo'shma gumanitar loyihasini amalga oshirish doirasida o'tkazildi.

XVII. MA'NAVIY VA MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH

Xalq ta'limi statistikasini shakllantirish va tadqiq qilish ilmiy-tadqiqot bo'limining 9-fevral buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi Alisher Navoiy tavallud topgan kuni munosabati bilan yig'ilgan statistik ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami **508250 nafar** o'qituvchilar mehnat faoliyatini olib borib, shundan **42425 nafar** o'qituvchilar ona tili va adabiyoti fani ustozlari ekanligi aniqlangan.

“Axborot resurslar markazi”da 14-fevral kuni o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri, shoir, adib, olim, buyuk sarkarda, yirik davlat arbobi, “Buyuk Boburiylar sulolasi” asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining **539 yilligi** tantanali ravishda nishonlandi. Shu munosabat bilan doktorant, magistr va ma'sul xodimlaridan iborat **6 ta** jamoalar o'rtasida **“ZAKOVAT”** intellektual o'yini o'tkazildi. Intellektual o'yini yakunida g'olib jamoalarga esdalik sovg'alari topshirildi.

8-mart Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan **“ZAKOVAT-LAW”** intellektual o'yini tashkil etildi. Intellektual o'yin **2 raund** davom etib, jami **12 ta** savol o'ynaldi. Intellektual o'yin yakunida g'olib bo'lgan jamoalarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Navro'z umumxalq bayramini yuqori saviyada o'tkazish maqsadida institut hududida **obodonchilik va ko'kalamzorlashtirishga** qaratilgan **hashar** o'tkazildi.

Institut jamoasi tomonidan **Navro'z umumxalq bayrami** kunlarida **“Har kuning bo'lsin, Navro'z”** shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi.

Shuningdek, taklif qilingan faxriylar, keksa avlod vakillari hamda institut jamoasiga dasturxonini yozilib, **Navro'z** taomlari tarqatildi.

O'zbekiston Respublikasining **Mustaqillik bayrami** munosabati bilan **“Mustaqilligimiz – bu faxrimiz”** mavzusida ma'muriy-ma'rifiy tadbir 2021-yil 31-avgustida tashkil etildi. Tadbirda institutning barcha xodimlari ishtirok etdi.

1-oktabr “O'qituvchi va murabbiylar kuni” va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan institutning Axborot resurs markazi Doktorantura va magistratura bo'limi hamda Xalqaro bo'limlari bilan hamkorlikda **“Zakovat”** intellektual o'yini tashkil etildi. Intellektual o'yini g'oliblariga esdalik sovg'alari topshirildi.

XVIII. XALQARO HAMKORLIK ISHLARI

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda **Yaponiya Xalqaro Hamkorlik Agentligi (JICA)**ning Toshkentdagi vakolatxonasi o'rtasida shartnoma imzolangan. Mazkur shartnomaga asosan “O'zbekistonda Yaponiya uslubidagi akademik o'zlashtirishni baholash test modelini O'zbekistonga kiritish” loyihasi amalga oshirish belgilangan.

Ushbu loyiha doirasida matematika fanidan **14 ta** hududdan tanlab olingan **40 ta** maktab **8-10-sinf** o'quvchilaridan kompyuterda **4 marotaba** test olish belgilandi.

2021-yilning 15-26-noyabr kunlari 40 ta maktabda, **2022-yilning 11-23-aprel kunlari 43 ta** maktabda tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Shundan **40 ta** oddiy maktab, **1 ta AFIDUM**, **1 ta** xususiy maktab, **1 ta** o'quv markazida **jami 3785 ta** o'quvchilar o'rtasida test o'tkazildi. Test natijalari tahlil etilganda natijalar qoniqarli darajada emas. Natijalar sinflar kesimida tahlil etilganda, **8-sinf 1285 nafar** o'quvchilardan **90 nafar** o'quvchi, **9-sinf 1264 nafar** o'quvchilardan **25 nafar** o'quvchi, **10-sinf 1236 nafar** o'quvchilardan **11 nafar** o'quvchi o'tish (**60**) balini to'play olishgan. Xulosa qilish mumkinki **8-sinflardan 7%**, **9-sinflardan 2%**, **10-sinflardan 0.9%** o'quvchilar matematika fanidan atigi o'tish bali to'plagan. Test natijalari yuzasidan A.Avloniy milliy tadqiqot-institutida 2022-yil 28-iyunda vazirlik, institut xodimlari, matematika fan o'qituvchilari uchun **seminar** tashkil etildi.

Mazkur seminar Yaponiyaning **KAWAI JYUKU Group** kompaniyasining bir tarmog'i **KEI Advanced** kompaniyasi hamda **Hapiral Test Solution** kompaniyasi hodimlari **Sakata Xiramitsu, Abe San, Beppu Sanlar** tomonidan olib borildi.

Xorijlik mutaxassislar tomonidan test natijalarning mazmun-mohiyati ishtirokchilarga tushuntirildi, shuningdek kelgusida tadqiqot natijalarni kengaytirish maqsadida 1) **Maktablar va o'quvchilar sonini oshirish**; 2) **Fan o'qituvchilari uchun seminarlar salmog'ini oshirish**; 3) **Darsliklar va dasturlarni, o'quv jarayonini takomillashtirish** bo'yicha takliflar tayyorlash belgilandi. Amalga oshirilgan ishlarning dastlabki natijalari to'g'risida ma'lumot 2022-yil 7-dekabrda 01/09-1675-son xat bilan vazirlikka taqdim etildi.

A.Avloniy nomidagi Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti 2022-yilning **8-15-iyul** kunlari Yaponiya davlatiga tashrif buyurdi hamda **Yaponiyaning Tsukuba universiteti va Digital Knowledge Co. Ltd. kompaniyasi** bilan maktab direktori lavozimiga nomzodlarning bilim va ko'nikmalarini baholash hamda natijasi bo'yicha ularga menejerlik sertifikatini berish amaliyotini yo'lga qo'yish hamda aniq va tabiiy fan o'qituvchilari uchun sertifikatsiya modelini tayyorlash bo'yicha o'zaro hamkorlik kelishuvini imzoladi.

Xalqaro dasturlar doirasida ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalarni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlari (**PISA, PIRLS, TIMMS**) doirasidagi topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga **"STesting" loyihasi** doirasida **100 dan** ortiq videolar **1000** tadan ortiq testlar va loyiha doirasida yaratilgan video mahsulotlar, tarjima qilingan (**53 bosma taboq, bichimi 60X84 1/8**) **PISA, TIMSS, PIRLS**) xalqaro baholash dasturlari ochiq bazasi platformaga joylashtirildi.

onlinedu.uz maxsus elektron platformasiga «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarini boshqarish», «Barkamol avlod

bolalar maktablarini boshqarish» kontentlarini (1.Ta'limda boshqaruv, 2. Boshqaruvda huquqiy masalalar, 3. Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar, 4. Boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik, 5. Boshqaruvda axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik, 6. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, 7. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari, 8. O'zini-o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish) 8 ta kompetensiya bo'yicha **60 ta test, 22 ta video, 22 ta taqdimot** joylashtirildi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan **fizika, kimyo va biologiya** fanlarining laboratoriya ishlarini olib borish bo'yicha o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash va malakasini oshirish loyihasi doirasida **masofa.uz** platformasiga **Fizika (uz), Kimyo (uz), Biologiya (uz), Informatika (uz), matematika (uz)** kurslari yaratildi. Bunda **207 ta test** va fan o'qituvchilariga login parol berilib, tizimga yuklandi.

TFIDUM maktablari **543 nafar** o'qituvchilari **STEAM** fanlaridan test sinovlaridan o'tkazildi.

onlinedu.uz maxsus elektron platformasiga **Fizika, Kimyo, Biologiya STEAM** fanlaridan **65 ta video, 65 ta prezentasiya, 130 ta test** yuklandi.

onlinedu.uz maxsus elektron platformasiga **Boshlang'ich sinflar uchun** tabiiy-ilmiiy fanlarni o'qitish metodikasi **49 ta video, 24 ta prezentasiya, 12 ta test** yuklandi.

“**Tabiiy fanlar bo'yicha** milliy o'quv dasturi asosida o'qituvchilar malakasini oshirish” qisqa muddatli o'quv kursining (**3-sinf o'qituvchilari uchun**) **18 ta video, 18 ta prezentasiya, 72 ta test** yuklandi.

“**Tabiiy fanlar bo'yicha** milliy o'quv dasturi asosida o'qituvchilar malakasini oshirish” qisqa muddatli o'quv kursining (**6-sinf o'qituvchilari uchun**) **18 ta video, 18 ta prezentasiya, 72 ta test** yuklandi.

uzlms.uz maxsus elektron platformasiga UO'TM, IMI, IDUM, direktorlari zaxira kadrlari (1.Ta'limda boshqaruv, 2. Boshqaruvda huquqiy masalalar, 3. Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar, 4. Boshqaruvda mas'uliyat va moslashuvchanlik, 5. Boshqaruvda axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik, 6. Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, 7. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari, 8. O'zini-o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish) **8 ta kompetensiya bo'yicha (34 ta video, 34 ta prezentasiya, 100 ta test)** yuklandi.

Qayta tayyorlash kurslari

Chet (ingliz) tili fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi bo'yicha **6 ta (120 ta test, 76 nafar)**, **maktabgacha ta'lim** tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash bo'yicha **13 ta (240 ta test, 28 nafar)**, kimyo fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursi bo'yicha **15 ta (300 ta test, 38 nafar)** tinglovchiga login-parol qilib berilib nazoratga olindi).

Matematika fanidan kasbiy-pedagogik qayta tayyorlash kurslari bo'yicha tabiiy va ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, kasbga yo'naltiruv va ixtisoslik fanlari modullari (550 ta test yuklandi, 236 ta ma'ruza matni, 130 ta prezintasiya) **452** nafar tinglovchiga login-parol berilib **masofa.uz** platformasiga joylashtirildi.

Geografiya fanini o'qitish huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash kursining **Tabiiy va ilmiy fanlar 1.01**. Umumiy o'rta ta'limning me'yoriy asoslari **1.02**. Yosh fiziologiyasi va gigienasi **Umumkasbiy fanlar 2.01**. Umumiy psixologiya **2.02**. Umumiy pedagogika **2.03**. Tarbiyaviy ishlar metodikasi **2.04**. O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish **2.05**. Pedagogik texnologiyalar **Kasbga yo'naltiruv va ixtisoslik fanlari 3.01** Geografiya o'qitish metodikasi **3.02** Umumiy yer bilimi **3.03** Geologiya **3.04** Tuproqlar geografiyasi **3.05** Topografiya va kartografiya asoslari **3.06** Tabiiy geografiya **3.07** Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya **3.08** Aholi geografiyasi va demografiya asoslari **3.09** Toponomika **1.10** O'lkashunoslik **3.11** Moddiy ishlab chiqarish asoslari **3.12** Geografiyani o'qitish texnologiyalari va loyihalashtirish yakuniy nazorat (**380 ta** test yuklandi).

Texnologiya yo'nalishi bo'yicha **235 - , 269 -** guruhiga, **Informatika** yo'nalishi bo'yicha kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash kursi **236**-guruhiga, login-parol berildi.

Ilg'or metodikalarga asoslangan sayyor o'quv mashg'ulotlari va seminar-trening o'quv-mavzulari asosida diagnostika o'tish bo'yicha **14 ta** hudud o'qituvchilari **masofa.uz** da kirish testi o'tkaziladi. (**53 ta test** yuklandi, **104487 nafar** tinglovchiga login-parol berildi).

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan **fizika, kimyo** va **biologiya** fanlarining laboratoriya ishlarini olib borish bo'yicha o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash va malakasini oshirish loyihasi doirasida **masofa.uz** platformasiga **Fizika (uz), Kimyo (uz), Biologiya (uz), Informatika (uz), matematika (uz), Fizika (rus), Kimyo (rus), Biologiya (rus), Informatika (rus), matematika (rus)** kurslari yaratildi. Bunda **267 ta test** va fan o'qituvchilariga login parole tizimga yuklandi. TFIDUM maktablarining **2236 nafar** o'qituvchilari **STEAM** fanlari bo'yicha test sinovlaridan o'tkazildi.

Avloniy **e-library** kutubxona **web saytini Frontend** qismining dizayini yaxshilandi, **Backend** qismining bir necha qismi organilib bajarildi. **E-library** kutubxona **Frontend** va **Backend** qismi bog'landi. **Frontend** qismiga yuklab olishlar va ko'rishlar sonini ko'rib turadigan funksiyasi qo'shildi. **E-library** elektron kutubxonasidagi kitoblarni saralash boyicha backend qismi ishlab chiqildi.

Vakant lavozimlarga nomzodlar tanlash maqsadida A.Avloniy nomidagi ITI va **ARGOS** o'rtasida tuzilgan hamkorlik doirasida **vacancy.argos.uz** portalidan online test sinovlarini topshirish maqsadida institutning **4-04** va **4-05** kompyuter xonalarida test sinovlarini olib borish va online suhbatdan o'tish ishlari tashkil etilib berilmoqda.

XIX. ILMIY-AMALIY LOYIHALAR

1. **“Upgrade”** loyihasi natijasiga ko‘ra, yangi zamonaviy talablar, xalqaro tajribalar asosida fan metodistlari uchun **24 ta**, sinf rahbarlari uchun **8 ta** va maktab direktorlarini kasbiy rivojlantirish kurslari uchun **32 ta** variativ o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik materiallar ishlab chiqildi hamda **354 ta** video kontentlar bazasi (audio materiallar, keyslar, taqdimotlar, mavzular bo‘yicha nazorat savollari, qo‘llanmalar, yo‘riqnomalar) yaratildi.

Onlinedu.uz maxsus elektron platformasiga **umumta’lim maktab direktorlari** uchun **“Upgrade”** loyihasi doirasida (1. Ta’limda boshqaruv; 2. Boshqaruvda huquqiy masalalar; 3. Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar; 4. Boshqaruvda mas’uliyat va moslashuvchanlik; 5. Boshqaruvda axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik; 6. Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish; 7. Inklyuziv ta’limni joriy etish masalalari; 8. O‘zini-o‘zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish) **8 ta** kompetensiya bo‘yicha (**114 ta video, 114 ta prezentasiya, 794 ta test yuklandi**).

2. **“Uzluksiz kasbiy rivojlantirish - 2022”** loyihasida **22 ta** fan bo‘yicha **196 ta** ishchi o‘quv dasturlar (**36 soatlik**) ishlab chiqildi, **22 ta** fan bo‘yicha **66** bosma taboq hajmda ma’ruzalar matni va taqdimot materiallari tayyorlandi, **12 ta** fan yuzasidan **432 ta** video darslar tasvirga olindi, **TALIS** tadqiqoti natijasi yuzasidan **2 qismdan** iborat hisobotlar to‘plami nashr etildi.

Loyihaga **22 ta** fan bo‘yicha **196 ta** ishchi o‘quv dasturlarini tayyorlash jarayoniga **58 nafar** yuqori ilmiy pedagogik salohiyatga ega mutaxassislarni saralab olindi.

Loyiha doirasida o‘quv va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari kurslari uchun **30 soatlik (16 ta)** ishchi o‘quv dasturlari ishlab chiqildi hamda shu asosida **8,0 b.t.** hajmda ma’ruzalar matni va **30 ta** taqdimot materiallari tayyorlandi, maktab o‘qituvchilari va psixologlari uchun **36 soatlik** maxsus malaka oshirish kurslarining ishchi o‘quv dasturlari ishlab chiqildi hamda shu asosda **12,0 b.t.** hajmda ma’ruzalar matni va **36 ta** taqdimot materiallari tayyorlandi, o‘quv va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari uchun **60 ta**, maktab o‘qituvchilari va psixologlari uchun **72 ta** video darslar tasvirga olindi, Tasvirga olingan video darslarni **onlinedu.uz elektron platformasiga** joylashtirish hamda **22 ta** fan yo‘nalishi bo‘yicha **3300 ta**, o‘quv va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kurslari uchun **300 ta** test savollari tayyorlandi.

3. **“Umumta’lim muassasalari bitiruvchilarining ona tili (o‘zbek tili) fani bo‘yicha malakasini baholash hamda 14 ta fandan test tizimini ishlab chiqish” loyihasini** amalga oshirish uchun **46 nafar** mahalliy va mutaxassislar jalb qilinib, jami **10 220 ta** testlar tuzildi va aprobatsiyadan so‘ng **6 000 ta** testlar bankga kiritildi.

Ona tili (o'zbek tilini) fanini bilish va malakasini baholash uchun **6 ta** mamlakatning **8 ta** standarti va til malakasini baholash bo'yicha (**SAT EGE**) **5 ta** imtihon tizimlari va **20 ga** yaqin adabiyot o'rganib chiqildi. Shuningdek, **234 ta** matn, **790 ta** test muhokama qilindi, **288 ta** testni o'z ichiga olgan **24 ta** variant hamda har biri **3 bosqichli** topshiriqlardan iborat **8 ta** variant bo'yicha **7 921 nafar** fan o'qituvchilari va talabalar shundan **6 601 nafar** fan o'qituvchilari, **1 320 nafar** bakalavr va magistratura talabalari har bir fandan **9-11** marotabadan **aprobatsiya jarayonlari** o'tkazildi. Ilk bor xalqaro **CEFR** standartlari asosida **4 ta** ko'nikma (*o'qish, gapirish, tinglab tushunish, yozish*) bo'yicha **O'zbek tilini bilishni baholovchi** milliy tizimi ishlab chiqildi.

4. Aniq va tabiiy fan o'qituvchilariga sertifikat berishning milliy tizimini yaratish va pedagoglarni birinchi, oliy malaka toifasini olishga tayyorlash (Qualification) loyihasi doirasida **biologiya, kimyo, matematika** hamda **fizika** fanlari maktab darsliklari tahlil qilinib, o'quvchilar va pedagoglar bilimini baholash uchun **4 ta fan** bo'yicha **komponentlar** shakllantirilib, baholash uchun **mezonlar** ishlab chiqildi.

Loyiha doirasida pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatini baholash, ularning pedagogik mahorati o'lchovini belgilash hamda o'quvchilarning o'quv fanidan bilimlarini sinovdan o'tkazish bo'yicha mutaxassislar tomonidan **matematika, fizika, kimyo, biologiya** fanlari spesifikatsiyalar ishlab chiqildi.

Matematika fani bo'yicha har sinf uchun **300 tadan jami 2100 ta** savol, **fizika** fani bo'yicha sinf uchun **300 tadan jami 1800 ta** savol, **kimyo** fani bo'yicha har bir sinf uchun **300 tadan jami 1500 ta** savol, **biologiya** fani bo'yicha har bir sinf uchun **300 tadan jami 1500 ta** savol tuzildi va ekspertizadan o'tkazildi.

Kasbiy malakani baholash uchun **fizika, matematika, kimyo va biologiya** fanlaridan **200 tadan 800 tagacha** hamda **200 ta psixologik** test ishlab chiqilib ekspertizadan o'tkazildi.

XXI. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLARNING YORITIB BORILISHI TO'G'RIDA

2022-yil yanvar-dekabr oylarida Institut faoliyatiga oid axborotlar, yangiliklar, intervyular ommaviy axborot vositalarida **214 marotaba** yoritilib borildi.

Shuningdek, viloyat telekanali, boshqa rasmiy veb-saytlar va radiokanallarda ham eshittirishlar tashkil qilindi. Rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida **jami 646 ta** postlar joylandi. Shundan, **124 ta** video rolik formatda, qolgan postlar rasm va matn ko'rinishida joylashtirildi.

Institut <https://t.me/avloniyuz> rasmiy telegram kanalida obunachilar **90034 nafar** bo'lib, kanalning statistika ma'lumotiga ko'ra, bitta postning bir kunlik o'rtacha

ko'rishlar soni **42127 ta** va ma'lumotlar foydalilik ko'rsatkichi **57,4 foizni** tashkil etadi. Telegram kanalidagi postlar **4271 marotaba** **467 ta** kanallarda ulashildi.

XXII. MOLIYAVIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TO'GRISIDA

Institutga 2022-yilda qilinadigan xarajatlar uchun budget mablag'lari hisobidan jami **9 715 442 000** (to'qqiz milliard yetti yuz o'n besh million to'rt yuz qirq ikki ming) so'm ajratilgan, shundan 2022-yil 14-dekabr holatiga **6 496 004 190,94** (olti milliard to'rt yuz to'qson olti million to'rt ming bir yuz to'qson) so'm mablag' o'zlashtirilgan, jumladan:


-1-guruh xarajatlari - ish haqi uchun jami **6 930 172 000** (olti milliard besh yuz to'qson ikki million yetti yuz o'ttiz ikki) so'm ajratilgan bo'lib, 2022-yil mobaynida jami **5 156 251 516,70** (besh milliard bir yuz ellik olti million ikki yuz ellik bir ming besh yuz o'n olti) so'mi o'zlashtirilgan;

-2-guruh xarajatlari – ish haqiga ajratmalar uchun jami **1 523 304 000** (bir milliard besh yuz yegirma uch million uch yuz to'rt ming) so'm ajratilgan bo'lib, 2022-yil mobaynida jami **1 133 485 324,00** (bir milliard bir yuz o'ttiz uch million to'rt yuz sakson besh ming uch yuz yegirma to'rt) so'mi o'zlashtirilgan.

-4-guruh xarajatlari - boshqa xarajatlar uchun jami **1 261 966 000** (bir milliard ikki yuz oltmish bir million to'qqiz yuz oltmish olti ming) so'm mablag' ajratilgan bo'lib, shundan 2022-yil mobaynida jami **206 267 350,24** (ikki yuz olti million ikki yuz oltmish yetti ming uch yuz ellik) so'mi, shu jumladan: - kommunal xizmatlari uchun **43 911 829,24** (qirq uch million to'qqiz yuz o'n bir ming sakkiz yuz yegirma to'qqiz) so'm; - qog'oz va idora ashyolari xarid qilish uchun **65 018 198** (oltmish besh million o'n sakkiz ming bir yuz to'qson sakkiz) so'm; - yoqilg'i xaridi uchun **29 945 992** (yegirma to'qqiz million to'qqiz yuz qirq besh ming to'qqiz yuz to'qson ikki) so'm; - Telefon va internet xizmatlari uchun **19 884 190** (o'n to'qqiz million sakkiz yuz sakson to'rt ming bir yuz to'qson) so'm; - boshqa tovar va xizmatlar uchun **22 879 377,50** (yegirma ikki million sakkiz yuz yetmish to'qqiz yuz uch yuz yetmish yetti ming) so'mi o'zlashtirildi.

KIRITILDI:

Monitoring bo'limi boshlig'i



B.Umarov


KELISHILDI:

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha prorektor



X.Ismailov

Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo'yicha
prorektor



M.Pardayeva